

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**Qo'l yozma huquqida
UDK: 330.1**

XAYDAROV HOJIAKBAR ABDUPATTO O'G'LI

**AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASI
SALOHIYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH**

Mutaxassislik: 5A230102 – Iqtisodiyot (ijtimoiy soha iqtisodiyoti)

Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTASIYA

Ilmiy rahbar _____

i.f.n., dots. X. Ahmedov

TOSHKENT – 2016

Dissertatsiya Toshkent moliya instituti «Iqtisodiyot nazariyasi» kafedrasida bajarilgan.

Ilmiy rahbar

dots. X. Ahmedov

Kafedra mudiri

dots. D. Djumonov

Magistratura bo'limi boshlig'i

i.f.n., dotsent U.Ortiqov

MUNDARIJA

KIRISH.....

I-BOB AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI ASOSLASHGA NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLAR

- 1.1. Aholi ish bilan bandligining ilmiy-nazariy asoslari
- 1.2. Xizmat ko'rsatish rivojlanishining bandlik tarkibidagi o'rni
- 1.3. Ish bilan bandlik darajasi va uning tarkibini aniqlashning uslubiy jihatlari

II-BOB O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHAMIYATI VA TAHLILI

- 2.1. O'zbekistonda bandlikning tarmoq bo'yicha o'zgarish dinamikasi
- 2.2. Aholi bandligini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi va uning tahlili

III-BOB XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

- 3.1. Ish bilan bandlik shakllarining xizmat ko'rsatish sohasi taraqqiyotiga ta'siri
- 3.2. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi bandligini oshirish imkoniyatlari

Xulosa va takliflar

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ilovalar

KIRISH

Tatqiqot mavzusining dolzarbligi. Mamlakatimizda barqaror va samarali iqtisodiyotni shakllantirish borasida amalga oshirib kelinayotgan islohotlar bugungi kunda o‘zining natijalarini namoyon etmoqda. Xususan xizmat kursatish va servis sohalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal suratlarda rivojlanishi natijasida aholini ish bilan bandligi masalalarini hal qilish imkoniyati yaratildi. Shu bois, ushbu sohani taraqqiy ettirish respublika hukumatining doimo diqqat e‘tiborida bo‘lib kelmoqda.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo‘nalishlaridan biri, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, yangi ish joylarini yaratish, haqiqiy mulkdorlar safini kengaytirish, mehnat resurslaridan samarali va adolatli boshqaruvchi rahbarlarni shakllantirish, ular uchun barcha jabhalarda qulay imkoniyatlar yaratishdir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I. Karimov 2014 yilda mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma‘ruzasida “Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo‘llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014 yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o‘rni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e‘tiborlidir”¹.

Erishilgan yutuqlarga qaramay, birinchi o‘rinda, ayniqsa qishloq joylarda yangi ish o‘rinlari yaratish hisobiga ishsizlikni qisqartirish respublikaning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishi bir qancha tarmoqlardan xodimlarning bo‘shab qolishi bilan birga kechmoqda. Mehnatga layoqatli aholining tabiiy o‘sishi ham yuqori darajada bo‘lib qolmoqda. Biroq aholining ishga joylashish ehtiyoji bilan iqtisodiyotning ish kuchiga bo‘lgan talabi

¹ I.A.Karimov. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo‘l ochib berish – ustuvor vazifamizdir //“Xalq so‘zi” gazetasi. 2015 yil 17 yanvar, № 14.

o'rtasida, xodimlarning professional tarkibi bilan taklif etilayotgan ishning xususiyati o'rtasida nomuvofiqlik yuzaga keldi.

Mana shu muhim omil hisobga olingan holda, tadqiqotda xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlikni oshirish masalalari alohida o'rin tutadi. Aholining ish bilan bandligi ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasining o'rnini nazariy mushohada etish va mehnat bozorining faoliyat ko'rsatishi, aholi bandligini, transformatsiya shakllari o'ziga xosligini, qonuniyatlarini takomillashtirishni keltirib chiqaradigan jami omillarni har tomonlama tadqiq etish talab qilinadi.

Shunday qilib, ushbu muammoni tadqiq etishning dolzarbligi aholini ish bilan ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasi salohiyatidan samarali foydalanishning nazariy, metodologik va amaliy bazasini ishlab chiqish tugallanmaganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot ishining predmeti va ob'ekti. Tadqiqotning predmeti aholining ish bilan bandligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish bo'yicha iqtisodiy munosabatlarni o'rganish, ob'ekti esa iqtisodiy islohotlarini chuqurlashtirish sharoitida aholining ish bilan bandligini xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish orqali ta'minlashdan iborat.

Tadqiqot ishining maqsadi va vazifalari. Dissertatsiya ishining maqsadi – bozor munosabatlari sharoitida xizmat sohaslarining iqtisodiyotda tutgan o'rnini va uni rivojlantirish orqali bandlik va farovonlik masalalarining nazariy, uslubiy va amaliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- xizmat sohaslarining ijtimoiy-iqtisodiy mazmunini ilmiy–amaliy jihatdan asoslash;
- xizmat sohaslarini rivojlantirish zaruriyatini yangicha bozor talablaridan kelib chiqqan holda bayon qilish;
- aholining ish bilan bandligini ta'minlashning nazariy asoslarini tadqiq etish;
- ish bilan bandlik darajasi va uning xususiyatlarini baholash;

- aholining ish bilan bandligini xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha taqsimlashning tendentsiyalari va xususiyatlarini aniqlash;

- ish bilan band bo'lganlar toifasi va uning mohiyatini aniqlash;

- xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali ish bilan bandlikni oshirish yo'nalishlarini ishlab chiqish;

- mavjud qonunlar va boshqa me'yoriy hujjatlar asosida sohani rivojlantirish orqali aholi bandligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish;

- xizmat sohasini rivojlantirish borasidagi xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalari o'rganilib, ulardan samarali foydalanish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi aholining ish bilan bandligining roli va o'rnini tavsiflaydigan qonuniyatlar va hodisalarni nazariy va amaliy umumlashtirishdan, xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha ish bilan bandlik tarkibini yaxshilashni asoslashdan, ishlab chiqilgan tavsiyalarni amaliy aprotatsiya qilishdan iborat bo'lib, u quyidagilarda o'z aksini topgan:

- aholini ish bilan bandligi tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati aniqlashtirilgan;
- ish bilan bandlikni ta'minlash bo'yicha xorijiy mamlakatlar tajribasi o'rganilgan va bu tajribalardan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari aniqlangan;
- aholining ish bilan bandligi xizmat ko'rsatish sohasi bo'yicha tahlil qilindi va Respublikadagi ish bilan bandlik tarkibi xolatiga baho berildi;
- xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish orqali ish bilan bandlikni oshirish yo'nalishlari belgilandi;
- o'rganilayotgan muammo bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar taklif etilgan.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Ushbu disertatsiyada ishlab chiqilgan ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar aholi bandligini ta'minlashda xizmat ko'rsatish sohasining o'rnini baholashda, bu borada amaliyotidagi o'ziga xos

muammolarni aniqlashga va ularni bartaraf etish hamda sohani rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: Bozor munosabatlari sharoitlarida iqtisodiyotni rivojlantirishning maqbul strategiyasini shakllantirishning tarkibiy qismi hisoblangan aholining ish bilan bandligi masalalari N.Volgin², B. Breev³, V. Bulanov⁴, B.Genkin⁵, Yu.Gorelov⁶, S.Jukov⁷, P.Juravlev⁸, Keyns⁹, A.Kokina¹⁰, K.Makkonnell¹¹, R.Mumladze¹², Yu.Odegov¹³, Rudenko¹⁴, A.Rofe¹⁵, L.Sbitova¹⁶, A.Smit¹⁷, kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. Mazkur tadqiqotlarda asosan aholining ish bilan bandligi, uning ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati, ish bilan bandlik shakllarining tasnifi, ish bilan bandlikning asosiy turlari va shakllari, aholining mehnat migratsiyasi, ish bilan ta'minlashni tartibga solish, aholi ish bilan bandligining iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha taqsimlanishi kabi nazariy-uslubiy jihatlari ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasida ushbu yo'nalishdagi muammolarning nazariy asoslarini o'rganish va echimlarini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan etakchi olimlar qatoriga Q.X.Abdurahmonov¹⁸, X.P.Abulqosimov¹⁹, B.X.Umurzakov²⁰, Sh.R.Xolmo'minov²¹, D.Rahimova²², N.Q.Zokirova²³,

² Volgin N.A. *Ekonomika truda: (sotsialno-trudovie otnosheniya) / Pod red. N.L. Volgina, Yu.D. Odegova.* -M.: «EKZAMEN», 2009

³ Breev B. D. *Bezrabotitsa v sovremennoy Rossii.* – M.: Nauka, 2005

⁴ Bulanov V. *Rinok truda. Uchebnik.* – M: Ekzamen, 2007

⁵ Genkin B. *Ekonomika i sotsiologiya truda.* - M.: Norma-Infra. 2007

⁶ Gorelov Yu. *Ekonomika truda. Uchebnik.* Piter, 2007;

⁷ Jukov S., Reznikova O.V. *Tsentrlnaya Aziya v sotsialno-ekonomicheskix strukturax sovremennoyo mira.* - Moskva: Moskovskiy obshchestvenniy nauchniy fond, 2001;

⁸ Juravlev P. *Upravlenie chelovecheskimi resursami: opit industrialno razvitix stran.* – M: EKZAMEN, 2005;

⁹ Keyns Dj. *Obshchaya teorii zanyatosti, protsenta i deneg.* – M.: 1978.

¹⁰ Kokina A.Ya. *Ekonomika truda. Uchebnik.* - M.: Magistr, 2010. – 293 str.

¹¹ K.R.Makkonel, S.Bryu. *Ekonomiks: printsipi, problemi i politika. /Perevod s angl.* –M.: INFRA-M, 2006. -940 s.

¹² Mumladze R.G. *Ekonomika i sotsiologiya truda: uchebnik / pod obshch red R.G. Mumladze.* – 2-e izd., ster. - M.: KNORUS, 2007.

¹³ Odegov Yu.G. *Ekonomika truda: Uchebnik* — M.: Volters Kluver, 2011. - 768 s.

¹⁴ Rudenko G.G. *Spetsifika polojeniya molodyoji na rinke truda / G.G. Rudenko, A.R. Savelov // Sotsiologicheskie issledovaniya.* - 2002.

¹⁵ Rofe A. *Ekonomika i sotsiologiya truda.* - M.: MIK, 2004;

¹⁶ Sbitova L. *Struktura zanyatosti i effektivnost proizvodstva.* - M.: Nauka, 1982;

¹⁷ Smit A. *Issledovanie o prirode i prichinax bogatstva narodov.* – M.: Nauka, 1993.

¹⁸ Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik.* – T.: Fan va texnologiya, 2012. – 388 b

¹⁹ Abulqosimov X.P. *Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya.* – T.: Akademiya, 2006. – 346 b.

²⁰ Umurzakov B.X., Raximov M. *Mehnat munosabatlari va mentalitet.* - T.: O'zbekiston, 2005.

D.A.Ortiqova²⁴, N.Rahimova²⁵, R.Ubaydullaeva²⁶, N.T.Shoyusupova²⁷larni kiritish mumkin. Ularning ilmiy ishlarida aholini ish bilan bandligini oshirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan tadqiq etilgan.

Bu ishlarda xizmat sohaslarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, uni taraqqiy ettirish konsepsiyalari, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etish yo'llari va uslublari yetarli darajada tadqiq etilgan. Biroq, xizmatlar ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatini yanada kuchaytirish, uning bandlikni ta'minlashdagi ahamiyatini va YaIM dagi ulushini oshirish masalalari ko'zda tutilganligi mazkur tanlangan mavzuning yanada dolzarbligini va bu borada hali yetarlicha ish olib borilmaganligidan dalolat beradi.

Tadqiqotda qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Dissertatsiyani yozishda ilmiy bilishning zamonaviy usullari, shu jumladan mantiqiy, statistik, matematik, qiyosiy tahlil, sotsiologik so'rovlar, sintez usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot ishidan olingan natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiya ishining ilmiy-amaliy tavsiyalari ijtimoiy ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning asosi sifatida ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishini keyinchalik tadqiq etish uchun nazariy asos sifatida qo'llanilishi mumkin. Dissertatsiya ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishi muammolarini o'rganish jarayonini to'ldiradi, shuningdek unda mehnatga layoqatli aholidan foydalanishni yaxshilash vazifalarini hal etishga oid aniq takliflar ishlab chiqildi.

Ushbu dissertatsiyaning ilmiy-amaliy tavsiyalaridan O'zbekiston Respublikasini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarida, shuningdek iqtisodiyotning samaradorligini oshirish maqsadlarida, Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish boshqarmalarida foydalanish mumkin. Bundan tashqari, tadqiqot

²¹ Xolmo'minov Sh.R. Mehnat bozori iqtisodiyoti. – T.: TDIU, 2004. – 202 b.

²² Rahimova D.N. va boshqalar. Milliy mehnat bozori uchun kadrlar tayyorlashni boshqarishni takomillashtirish yo'nalishlari. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B.23.

²³ Zokirova N.K. Sotsialno-trudovie otnosheniya: mejdunarodniy i natsionalnie aspekti. - T.: Fan, 2008. – S. 88.

²⁴ Artikova D.A. Formirovanie zanyatosti naseleniya v Respublike Uzbekistan. – T.: Fan, 2005;

²⁵ Raximova N.X. Povshenie ekonomicheskoy aktivnosti jenshchin na rinke truda Uzbekistana. Avtoref. diss... dokt. ekon. nauk. – Tashkent, IE AN RUz, 2007

²⁶ Ubaydullaeva R., Ata – Mirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi.– T.: Universitet, 2006;

²⁷ Shoyusupova N.T. Mehnat sotsiologiyasi. O'quv qo'llanma. – T.: Adabiyot jamg'armasi, 2004. – 160 bet

natijalari oliy o'quv yurtlarida «Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi», «Mehnat bozori iqtisodiyoti» kabi fanlarni o'qitish uchun asos bo'lib hizmat qilishi mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi. Tadqiqot ishi kirish, uch bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, birinchi bobda aholi ish bilan bandligini asoslashga nazariy-uslubiy yondashuvlar yoritilgan, ikkinchi bobda o'zbekiston respublikasida aholi bandligini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati va tahlili amalga oshirilgan hamda so'ngi bobda xizmat ko'rsatish sohasining aholi bandligini oshirishdagi ahamiyatini oshirish masalalari baholanib, istiqbolli ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar berilgan.

I - BOB. AHOLI ISH BILAN BANDLIGINI ASOSLASHGA NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLAR

1.1. Aholi ish bilan bandligining ilmiy-nazariy masalalari

Ma'lumki, iqtisodiy siyosat ish bilan bandlik holatiga katta ta'sirini o'tkazadi. Demak, iqtisodiy nazariyalarining ish bilan bandlik bilan bog'liq qismlari mavjud.

Aholi ish bilan bandligining nazariy asoslari asrlar davomida shakllangan va rivojlantirilgan. Bu ta'limotda, asosan to'rtta: klassiklar, keynschilar, monetarchilar va institutsionalchilar maktablari farqlanadi.

1. *Klassik nazariya.* Bu maktab vakillari (A.Smit, D.Rikardo, J.B. Sey, A.Marshall va boshqalar) ish bilan to'la bandlik-bozor iqtisodiyotining normasi, davlatning bu jarayonga aralashmaligi eng yaxshi siyosatdir deb hisoblaganlar.

Adam Smit (1723-1790 y.y.) klassik iqtisodiy nazariyasining asoschisi bo'lib ilk bor "ko'rinmas qo'l" g'oyasini olg'a surdi. Mazkur g'oya bo'yicha bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha iqtisodiy sub'ektlar erkin ravishda iqtisodiy qarorlarni qabul qilishlari kerak. Davlat iqtisodiyotga aralashmaydi va bozorlarda mukammal raqobat o'zidan-o'zi o'rnatiladi.

Xususan, u o'zining «Xalqlar boyligi tabiati va sabablari to'g'risida tadqiqot» (1776 y.) nomidagi asarida odamlarning faoliyati va intilishlari ularning shaxsiy iqtisodiy manfaatlari orqali belgilanishini ta'kidlaydi. Uning fikricha ishsizlik mukammal raqobat sharoitida ro'y bermaydi va mehnat haqi bimalol o'zgarib turadi. Ish bilan bandlik tarkibi esa tarmoqlardagi foyda normasi bilan belgilanadi, ya'ni qaysi tarmoqda foyda ko'p bo'lsa, kapital va mehnat shu tarmoqqa oqadi.

David Rikardo (1772-1823 y.y.) mehnat qiymati nazariyasining asoschisi bo'lib Adam Smitning fikriga qo'shiladi. Faqat u klassik iqtisodiy nazariyani muqobil qiymat nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqadi. So'ng u tashqi savdo masalalarini ham o'rganadi va nisbiy afzallik g'oyasini ishlab chiqadi. Mazkur g'oyaga ko'ra qaysi ishlab chiqarish tarmog'i mahsulot ishlab chiqarishda nisbiy afzallikka ega bo'lsa – kapital va mehnat shu tarmoqqa qarab oqadi.

Jan Batist Sey (1767 – 1832 y.y.), qiymatning omilli nazariyasini ishlab chiqdi va klassik maktab nazariyasini yanada rivojlantiradi. U investitsiyalar jamg'arishga tengligini daromadlar va sarflar muvozanatini ta'minlovchi shart sifatida

belgilaydi. Uning fikricha barcha ishlab chiqarish omillari egalari yaratilgan milliy daromadni o'z hissasiga ko'ra bo'lib olishadi. Shu jumladan, ishchi kuchi egalari ham o'z hissasiga ko'ra mehnat haqini olishadi. Ish bilan bandlik tarkibi tarmoqlarda mehnatning yalpi mahsulotga qo'shgan hissasiga bog'liq – qaysi tarmoqda bu hissa katta bo'lsa, shu tarmoqda mehnat hajmi va bandlik ham yuqori bo'ladi.


Alfred Marshall (1842-1924 y.y.), klassik iqtisodiy nazariyasini neoklassik iqtisodiy nazariyasigacha rivojlantirdi, ya'ni u talab va taklif nuqtai nazaridan ish bilan bandlik nazariyasini tahlil qildi. Hususan, uning fikricha mehnat unumdorligi oshishi mehnatga bo'lgan talabni oshiradi, chunki mehnat unumdorligi oshishi natijasida mahsulot qiymati kamayadi va uning taklifi oshadi. Demak, qaysi sohada mehnat unumdorligi oshsa, shu sohada bandlik hajmi kamayadi, mehnat unumdorligi past bo'lgan tarmoqlarda bandlik soni yuqori bo'ladi. Haqiqatdan ham, mehnat sig'imi yuqori bo'lgan mahsulotlar ayniqsa texnologik jihatdan rivojlanmagan ishlab chiqarishda etishtiriladi, ya'ni bunday ishlab chiqarishda ko'p mehnatdan foydalaniladi.

2. *Keynschilar nazariyasi (J.M.Keyns, J.Robinson, R.Xarrod, E. Domar va boshqalar)*. J.M. Keyns mehnat bozorini davlat tomonidan tartibga solishning eng asosiy vazifalaridan biri ish bilan to'la bandlikka erishish, deb hisoblagan²⁸. 1933 yilga kelib AQShda ishlab chiqarish inqirozi (tarixda “Buyuk inqiroz” nomi bilan mashhur) yuz berdi. Inqiroz paytida ro'yxatga olingan ishsizlik darajasi 25% tashkil qildi. Bu vaziyatni klassik va neoklassik maktab vakillari nazariyalari tushuntirib bera olishmadi. Shuning uchun ham Yangi nazariya yaratilishi muqarrar edi.

Djon Meynard Keyns (1883-1946 y.y.) – davlat tomonidan tartibga solinadigan iqtisodiyot nazariyasini ishlab chiqdi. U o'zining «Ish bilan bandlik, foiz va pul nazariyasi» (1936 y.) deb nomlangan asarida mutlaq yangi ish bilan bandlik nazariyasini taklif qildi. U investitsiyalar jamg'arishga har doim teng bo'lmasligini isbotlaydi va to'la bo'lmagan ish bilan bandlik holatini kelib

²⁸ Keyns Dj. Obshchaya teorii zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: 1978.

chiqishini tushuntirib beradi. Uning fikricha, agar tarmoqda yalpi talab past bo'lsa, unda o'sha tarmoqda ish bilan bandlik darajasi kamayadi. Yalpi talabni oshirish uchun kreditlarni arzonlashtirish va soliqlarni kamaytirish lozim. Keynsning fikricha yalpi talabning o'sishi quyidagilarning o'sishi orqali ta'minlanadi – iste'mol, investitsiyalar, davlat sarflari. (1.1.1-rasm)



1.1.1-rasm. Ish bilan bandlikning keynschilar nazariyasi²⁹

1.1.1.-rasmdan ma'lumki, AD – yalpi talab miqdori; Y – yalpi ichki mahsulot miqdori; R – narxlar darajasi. Boshqacha aytganda, agar to'la bandlik holati ta'minlanmasa, ya'ni $Y < Y^*$ bo'lmasa, unda yalpi talab oshirilishi lozim, ya'ni AD chizig'i AD' holatiga keltirilishi lozim, so'ngra esa uni yanada chapga siljitish lozim, to to'la ish bilan bandlik ta'minlanguncha. Narx-navo darajasi ($R=R^*$) o'zgarmas bo'lib saqlanib qoladi.


Keynsning ta'kidlashicha, “Ish haqining pastligi yangi klassik nazariyaning qoidasiga zid tarzda, ishsizlikning kamayishiga ko'maklashadi. Aholining ish bilan bandligi, avvalo, multiplikatsiyalash samarasiga olib keladigan investitsiyalarning miqdoriga bog'liq bo'ladi”³⁰.

3. Ish bilan bandlikning monetarizm nazariyasi. (M.Fridman, R.Lukas, J.Mut va boshqalar). 1970 yillarda keynschilar nazariyasi ish bilan bandlik holatlarini

²⁹ K.R.Makkonel, S.Bryu. Ekonomiks: printsipi, problemi i politika. /Perevod s angl. –M.: INFRA-M, 2006. - 940 s.

³⁰ Abdurahmonov Q.H.. Mehnat iqtisodiyoti. – Toshkent: Mehnat nashriyoti, 2009, 31-bet.

tushuntirib bera olmadi, chunki shu davrda rivojlangan mamlakatlarda to'la ish bilan bandlik sharoiti o'rnatilgandi va uzoq muddatli davrda iqtisodiy o'sishni ta'milash lozim edi. Yalpi talabning o'sishi esa faqatgina inflyatsiyani oshirar edi. Inflyatsiya esa qisqa muddatli tebranishlarga olib kelar edi va ishsizlik paydo bo'lardi. Buni oldini olish uchun Milton Fridmen (1912 y.t.) monetarizm siyosatini taklif qildi. (1.1.2-rasm)



1.1.2-rasm. Ish bilan bandlikning monetarizm siyosati³¹

Bu nazariyaga ko'ra pul massasi ish bilan bandlik hajmi o'sishiga proporsional ravishda oshirilib borish kerak. Pul massasining oshishi sur'ati esa real yalpi ichki mahsulot hajmi o'sish sur'atiga teng bo'lishi darkor. Masalan, iqtisodiy o'sish 5%ni tashkil qilsa, ya'ni yalpi ichki mahsulot Y^* dan Y^{*} gacha ohsa, unda pul massasi ham 5%ga oshirilishi kerak, ya'ni buning natijasida yalpi talab AD holatidan AD' holatiga siljiydi. Narx esa, ya'ni R - o'zgarmas bo'lib qoladi. To'la ish bilan bandlik holati ikkala holatda ham saqlanib qoladi. Agar pul massasi oshirilmasa unda inflyatsiya ro'y beradi.

Monetarizm siyosati faqatgina to'la ish bilan bandlik sharoitlari o'rnatilgandagina qo'llanishi mumkin.

³¹ K.R.Makkonel, S.Bryu. Ekonomiks: printsipi, problemi i politika. /Perevod s angl. -M.: INFRA-M, 2006. -940 s.

4. *Institutsionalchilar nazariyasi* (T.Veblen, J.Gelbreyt, R. Gorodon, D.Kommons va boshqalar). Institutsionalchilar mehnat bozorini iqtisodiyotning eng muhim sektori deb hisoblab, u iqtisodiy tizimda markaziy o'rinni egallashini ko'rsatadilar. Jumladan, T.Veblen bozorning tarixiy rivojlanishini tahlil etar ekan, industrial jamiyat taraqqiy etishi bilan raqobat kurashi markazi tovarlar va xizmatlar bahosi uchun kurash sohasidan mehnat bahosi va sharoiti uchun kurashish sohasiga ko'chishini aniqlagan³².

Institutsionalchilar fikriga ko'ra, mehnat bozoridagi talab va taklifning nomutanosibligini ijtimoiy nazorat tizimini o'rnatish orqali hal etish mumkin. Davlat esa mehnat bozoridagi rejali siyosatini mehnat bozorida amal qiladigan institutlar orqali amalga oshirishi zarur. J.Gelbreyt hisoblashicha, bevosita mehnat bozorida eng muhim ijtimoiy muammolar hal etiladi, shuning uchun davlat mazkur jarayonda ishtirok etishi shart, zero ko'plab odamlar ishdan va tirikchilik kechirish uchun zarur ne'matlardan mahrumlar. Davlat ish bilan bandlik darajasi yuqori bo'lishidan manfaatdordir, chunki bu holat byudjetning daromad qismini ko'paytiradi va mamlakat boyligi ko'payishini ta'minlaydi³³.

Institutsional maktab vakillari fikricha, shaxs erkin hamda kasb malakasini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladigan ijtimoiy tartib o'rnatish uchun ijtimoiy-iqtisodiy siyosat quyidagi vazifalar hal etilishini ta'minlashi zarur:

- qobiliyatiga muvofiq tanlagan kasbga o'qish uchun teng imkoniyat yaratish;
- mehnat jarayoniga qo'shilish, malaka oshirish, xizmat vazifasida ko'tarilish uchun teng imkoniyatlar yaratish;
- mehnatni rag'batlantirish xodim va uning oilasi munosib turmush kechirishini ta'minlaydigan darajada bo'lishi;
- xodimlar bilan ish beruvchilar o'rtasidagi mehnat munosabatlarini tartibga solish.

³² Veblen T. Teoriya prazdnogo klassa. – M.: Progress, 1984. –S.56.

³³ Gelbrayt D.. Ekonomicheskaya teoriya i tseli obschestva. -M.:Nauka. 1979. –S.406 .

Ish bilan bandlik nazariyalari insoniyat tarixining turli davrlarida o'z o'rniga ega bo'lib, amaliyotda qo'llanilib keldi. 1930- yillardagi Buyuk inqirozdan so'ng AQShda keynschilarning ish bilan bandlik nazariyasi amaliyotda keng qo'llanila boshlandi. Masalan, AQSh prezidenti Teodor Ruzvelt mamlakatni chuqur iqtisodiy inqirozdan olib chiqish maqsadida keynschilarning ish bilan bandlik siyosatini amalga oshirdi. Hususan, 1946 yildagi "Bandlik to'g'risidagi qonun"da keynschilarning ish bilan bandlik nazariyasi g'oyalari o'z aksini topdi. Mazkur qonunda barcha ishlashni istagan band bo'lmagan shaxslarni ish bilan ta'minlash uchun hamma imkoniyatlardan foydalanish, ayniqsa, investitsiyalarni ko'paytirish orqali yangi ish o'rinlarini yaratish to'g'risida ko'rsatmalar mavjud.

1970 yillarda AQShda yuqori inflyatsiya darajasi yuqori ishsizlik bilan hamnafas bo'la boshladi. Bu sharoitda ish bilan bandlikning monetarizm nazariyasi qo'l keldi. Nafaqat AQShda, balki boshqa rivojlangan mamlakatlarda byudjet taqchilligini kamaytirish bo'yicha siyosat olib borildi. Hattoki AQSh Konstitutsiyasiga byudjetni balanslashtirish lozimligi to'g'risida qo'shimchalar kiritildi. Angliyada esa M.Tetcher boshchiligida ish bilan bandlikning monetarizm siyosati amalga oshirilib, barqaror vaziyat yuzaga keldi.

Gap shundaki, Xalqaro Valyuta Fondi iqtisodchilari monetarizm siyosatini iqtisodiy qoloq mamlakatlar hamda MDH mamlakatlari uchun tavsiya qilgandi, lekin tajriba shuni ko'rsatdiki mazkur taklifni inobatga olgan mamlakatlarda ijobiy iqtisodiy natija kutilmadi.³³

Aksincha, masalan, O'zbekiston o'z islohotlar modeliga tayangan holda islohotlarni amalga oshirdi. Bu modelga ko'ra bosqichma-bosqich institutsional o'zgarishlar, hamda iqtisodiy erkinlashtirish amalga oshirildi. Natijada O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz chuqurlashmadi va 1996 yildan boshlab iqtisodiy o'sish ta'minlandi.

Hozirgi paytda, o'ylaymizki, O'zbekistonda ish bilan bandlikning keyns siyosatini amalga oshirish uchun yaxshi fursat tug'ilgan. Yangi ish o'rinlarini yaratish asosan ijtimoiy va bozor infratuzilmasida amalga oshirilsa maqsadga

³³ Rinok truda: Uchebnoe posobie. Kollektiv avtorov pod ruk. akad. Abduraxmanova K.X.– T.: TFREA, 2009. s. 33.

muvofig bo'lar edi, chunki mazkur soha barcha iqtisodiy tarmoqlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning rivojlanishi boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

1.2. Xizmat ko'rsatish rivojlanishining bandlik tarkibidagi o'rni

O'tgan yillar davomida aholining ijtimoiy farovonligini ta'minlash va ijtimoiy sohani rivojlantirish masalalari faoliyatimizda hal qiluvchi o'rin egalladi. Yangi ish o'rinlari tashkil etish, bandlikni ta'minlash va aholi daromadlarini oshirish masalalari doimo e'tiborimiz markazida bo'lib qolmoqda. Ish o'rinlarini tashkil etish va aholi bandligini ta'minlash bo'yicha mintaqaviy dasturlarning amalga oshirilishi natijasida 2013 yilda qariyb 970 ming kishi ish bilan ta'minlandi. Bu ish o'rinlarining 60,3 foizdan ortig'i qishloq joylarda yaratildi. Bu borada kichik korxonalar, mikrofirmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlikni rivojlantirish evaziga 480 mingdan ortiq, kasanachilikni kengaytirish hisobidan esa 210 mingdan ziyod ish o'rni tashkil etildi. 2012 yilda eng ustuvor vazifa bo'lmish kasb-hunar kollejlarning 500 ming nafardan ortiq bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi va aytish joizki, buning ahamiyatini baholashning o'zi qiyin. O'z xususiy ishini ochib, biznes bilan shug'ullanishga qaror qilgan kollej bitiruvchilariga 140 milliard so'mdan ziyod imtiyozli mikrokreditlar ajratildi. Mamlakatimizda ijtimoiy sohani isloh etish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar tizimida qishloq aholi punktlarining qiyofasini tubdan o'zgartirish, namunaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish, qishloqda mohiyat e'tibori bilan yangi infratuzilmani shakllantirish hisobidan qishloq ahlining hayotini yanada yaxshilashga alohida e'tibor qaratilmoqda. 2009 yildan boshlab mamlakatimizning 159 ta qishloq tumanida namunaviy loyihalar asosida 900 dan ortiq yangi uy-joy massivlari barpo etildi, umumiy maydoni 4 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 33 ming 500 dan ziyod yakka tartibdagi uy-joy foydalanishga topshirildi. 732 kilometr asfalt qilingan avtomobil yo'llari, mingdan ortiq ijtimoiy va bozor infratuzilmasi ob'ektlari barpo etildi. 2013 yilda qishloq joylardagi 353 ta massivda umumiy maydoni 1 million 500 ming kvadrat metr bo'lgan 10 mingta shinam uy-joylar barpo etildi, bu ko'rsatkich 2012 yilga nisbatan 17 foizga ko'pdir. Ushbu

maqsadlar uchun qariyb 650 million dollar qiymatidagi mablag' yo'naltirildi. Buning 106 million dollari Osiyo taraqqiyot bankining kredit mablag'laridir. Qishloqlarimizni obod qilish, qishloq aholisining turar-joy sharoitlarini yaxshilash bo'yicha bizning bunday tajribamiz xalqaro hamjamiyatda katta qiziqish uyg'otmoqda. Mamlakatimizda 2014 yilda ham ijtimoiy sohada chuqur sifat o'zgarishlari ro'y berdi. Bu sohaning barqaror faoliyatini ta'minlash va rivojlantirishga davlat byudjeti jami xarajatlarining qariyb 60 foizi yo'naltirilmoqda.

Ta'lim sohasida o'quv muassasalarini qurish, rekonstruktsiya qilish va kapital ta'mirlash borasidagi ishlar izchil davom ettirildi. O'tgan yili hammasi bo'lib 540 dan ziyod ob'ekt, shu jumladan, 380 ta maktab, 160 dan ortiq kasb-hunar kolleji va akademik litsey tubdan yangilandi. Mazkur maqsadlar uchun qariyb 550 milliard so'm sarflandi. Ushbu mablag'larning 120 milliard so'mdan ortig'i ta'lim muassasalarini o'quv, laboratoriya va ishlab chiqarish uskunalari, kompyuter va multimedia vositalari bilan ta'minlash uchun ajratildi.

2011-2016 yillarda oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini modernizatsiya qilish dasturi doirasida 19 ta oliy ta'lim muassasasida qurilish, rekonstruktsiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash bo'yicha qiymati 230 milliard so'mlik ishlar bajarildi. Andijon davlat universiteti, Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, O'zbekiston Milliy universitetida yangi o'quv binolari barpo etildi.

2014 yilda bir qator yangi institut va fakultetlar, o'quv-ilmiy markazlar ochildi. Toshkent tibbiyot akademiyasining stomatologiya fakulteti va hududlardagi tibbiyot oliy o'quv yurtlari negizida Andijon, Buxoro, Samarqand va Nukus shaharlarida filiallariga ega bo'lgan Toshkent davlat stomatologiya instituti tashkil etildi.

Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti ochildi, shuningdek, ushbu institut qoshida Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharq qo'lyozmalari markazi tashkil qilindi.

Janubiy koreyalik sheriklar bilan hamkorlikda Toshkent shahrida Inxa universiteti tashkil etildi. Mazkur oliy o'quv yurtida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida, birinchi navbatda, dasturiy ta'minot mahsulotlari ishlab chiqarish, axborot tizimlari va kompyuter tarmoqlarini boshqarish bo'yicha xalqaro standartlar darajasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlanadi.

Sog'liqni saqlash sohasida qishloq vrachlik punktlarining faoliyati tubdan qayta ko'rib chiqildi. Bunday tibbiyot maskanlarining sonini yanada optimallashtirish, zamonaviy diagnostika va tibbiyot asbob-uskunalarini bilan jihozlash, malakali kadrlar bilan ta'minlash va ularning mehnatini rag'batlantirishni kuchaytirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirildi. Optimallashtirish natijasida kamquvvatli va samarasiz faoliyat ko'rsatayotgan 243 ta qishloq vrachlik punkti tugatildi.

Tajriba tariqasida Bo'stonliq, O'zbekiston, Shahrisabz, Xiva va Jomboy tumanlarida patronaj tibbiyot hamshirasining o'z funktsional vazifalarini nechog'liq to'liq bajarishi va faoliyatining yakuniy natijalaridan kelib chiqqan holda, uning ish samaradorligini reyting asosida baholash tizimi joriy etildi. Bu yil ushbu tajribani mamlakatimizning yana 18 ta tumanida qo'llash mo'ljallanmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalari uchun xodimlarni tayyorlash mehnat resurslarini shakllantirishning umumiy qonuniyati bilan tavsiflanadi. Bu sohalarda ham xodimlarni tanlash asosan mehnatga qobiliyatli, yoshga etgan shaxslar hisobiga amalga oshiriladi. Mutaxassislar maxsuslashgan oliy va o'rta maxsus yurtlarida tayyorlanadi. Mehnat resurslarining shakllanishi deyilganda ijtimoiy soha tarmoqlari uchun xodimlar tanlash, shuningdek xodimlar malakasini oshirish va tayyorlashni tashkil etish tushuniladi.

Mehnatga layoqatli aholi sonining o'sib borish sur'atlari oshgan va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida ortiqcha ishchi kuchi yuzaga kelgan, ishlab chiqarish bir shaklida boshqa shaklga o'zgartirilayotgan bir sharoitda O'zbekistonda to'laqonli mehnat bozorini shakllantirishga g'oyat jiddiy e'tibor berilmoqda. Mehnat qilishning ixtiyoriylik tamoyili qonun bilan

mustahkamlangan, majburiy mehnat man etilgan, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash, ularni yangi kasblarga o'rgatib qayta tayyorlash mexanizmi yaratilgan.

Mulki bosqichma-bosqich davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish, kichik, xususiy, ijara, X/J lari barpo etishni rivojlantirish, tadbirkorlikni yo'lga qo'yish va qo'llab quvvatlash, erlarni aholiga bulib berish natijasida bandlik sohasidagi mavjud, keskinlikni bartaraf etishga, aholining ish bilan band bo'lmagan katta qismini foydali mehnatga jalb qilishga erishildi.

Bozor iqtisodi sharoitida ijtimoiy soha uchun bozor talabiga javob beradigan ma'naviy barkamol, sog'lom, bilim jihatidan etuk mutaxassislar talab qilinmoqda. Ularning siyosiy va ishchanlik sifatlariga e'tibor berilmoqda. Bu sohalarga mutaxassislar tayyorlashda yoshlarning qiziqishlariga ahamiyat berish kerak, chunki bu soha xodimlari hayotiy zarur bo'lgan ijtimoiy vazifalarni xal qiladilar. Bu esa yuqori malaka talab qiladi.

Yoshlar ijtimoiy sohaning mehnat resurslari manbaining asosi hisoblanganligi sababli, ularni tayyorlash vazifasi muhim xalq xo'jalik ahamiyatiga egadir. Yoshlarga kasb tanlashda yordam berish, ilmiy tizimni kasb yo'nalishiga qaratish mamlakatimizda mehnat resurslarini shakllantirish va undan foydalanish mexanizmining ajralmas qismidir.

Respublikamizning barcha viloyatlaridagi mehnat birjalari umumta'lim maktablari va boshqa o'quv yurtlarini tugatgan yoshlarga soha bo'yicha ish topishga yordam bermoqdalar Ijtimoiy sohani xodimlar bilan ta'minlash mahalliy xokimlarning diqqat markazida turibdi. Yoshlarni bu soha ishlariga qiziqishini orttirish respublika xukumatining va tegishli qo'mitalarning asosiy vazifalaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xizmat ko'rsatish sohalari uchun xodimlar tayyorlash ikki yo'nalishda 1) korxonalar, tashkilotlarda shogird sifatida tajriba orttirish, 2) maxsus kasb-hunar va oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish orqali amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy sohaning harakat qilish sharti uni yuqori malakali oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojini qondirishdir Respublikamizda sohalar uchun pedagogika, tibbiyot va boshqa kolledj va

litseylarda iqtisod, huquq, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya, ta'lim san'at va madaniyat sohalari uchun mutaxassislar tayyorlanadi. Oliy ta'lim tizimining yarmidan ko'prog'i ijtimoiy soha uchun mutaxassislar etkazib beradi.

Mamlakatimizda umumta'lim maktablari o'qituvchilarning malakasini oshirish institutlari har bir viloyatda faoliyat ko'rsatmoqda. Shuningdek, Toshkent shahrida oliy ta'lim, o'rta maxsus o'quv yurtlari, kollejlari o'qituvchilari va shifokorlar malakasini oshirish institutlari ishlab turibdi. Turli mavqeidagi konferentsiyalar o'tkazish xodimlar malakasini oshirishning yana bir yo'nalishi sifatida xizmat qilmoqda.

Faqat 2014 yilda 6 million 500 ming nafar maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari, maktab, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylar o'quvchilari chuqurlashtirilgan tibbiy ko'rikdan o'tkazildi. Bu esa kasalliklarni barvaqt aniqlash va ularni samarali davolash imkonini bermoqda.

Ana shunday amaliy ishlarimiz natijasida so'nggi o'n yilda rivojlanishida tug'ma nuqsonlari bo'lgan bolalar soni 1,3 barobar kamaydi. 6-15 yoshli bolalar orasida o'tkir yuqumli kasalliklar bilan og'rish 34,4 foizga, pnevmoniyaga chalinish 49,7 foizga, bronxit bilan xastalanish 32,8 va skolioz bilan kasallanish 32,7 foizga kamaydi.

2014 yilda 133 ta tibbiyot muassasasi yangitdan qurildi va rekonstruktsiya qilindi. Guliston shahridagi viloyat onkologiya dispanseri, Toshkent shahridagi Respublika ixtisoslashtirilgan pediatriya ilmiy-amaliy markazi, Andijon shahridagi ko'ptarmoqli viloyat tibbiyot markazi, Nukus shahridagi Respublika silga qarshi kurash dispanseri va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Ushbu maqsadlar uchun byudjetdan 400 milliard so'mdan ortiq mablag' va qariyb 30 million dollarlik xorijiy kredit va grant mablag'lari yo'naltirildi.

Koreya Respublikasi bilan yaqin hamkorlikda Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlari hududida yagona bo'lgan, eng yuqori texnologiyalar asosidagi tibbiyot asbob-uskunalari bilan jihozlanadigan ko'ptarmoqli zamonaviy bolalar tibbiyot markazi qurilishi boshlanganidan xabaringiz bor, albatta.

Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanish aholimiz, avvalo, yosh avlodimizning sog'lig'ini mustahkamlashda muhim o'rin tutishini inobatga olib, bu sohaga alohida e'tibor qaratmoqdamiz. Bu borada sport inshootlarini har tomonlama rivojlantirish va ularni zamonaviy inventarlar bilan jihozlash uchun barcha zarur sharoitlar yaratilmoqda.

2014 yil mobaynida faqat Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasining mablag'lari hisobidan 18 ta namunaviy sport ob'ekti va 73 ta maktab sport zali barpo etildi, 24 ta ob'ektda qariyb 100 milliard so'mlik rekonstruktsiya va kapital ta'mirlash ishlari amalga oshirilganini qayd etish lozim.

Bugungi kunda O'zbekistonda 2 millionga yaqin farzandlarimiz, shu jumladan, 840 mingdan ortiq qiz bolalar sportning 30 dan ziyod turi bilan muntazam shug'ullanmoqda.

Nufuzli xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sportchilari erishayotgan g'alabalar tobora ko'payib bormoqda. 2014 yilda sportchilarimiz 849 ta medalni qo'lga kiritdi, ularning 266 tasi oltin medallardir.

Bu haqda gapirganda, o'tgan yilning kuzida Janubiy Koreyada bo'lib o'tgan, 45 davlatdan 13 ming sportchi qatnashgan XVII Osiyo o'yinlarida sportchilarimiz 61 ta, jumladan, 12 ta oltin medalni qo'lga kiritib, O'zbekiston terma jamoasi eng kuchli o'nta mamlakat qatoridan joy olganini mamnuniyat bilan ta'kidlashni istardim. Sportchilarimiz ana shunday yutuqlari bilan Vatanimiz shuhratini dunyoga tarannum etishga munosib hissa qo'shdilar va ularning qo'lga kiritgan marralari bilan har qancha faxrlansak arziydi, albatta.

Aholi bandligini ta'minlash, avvalo, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish bo'yicha zarur sharoitlar yaratish ijtimoiy siyosatimizning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi.

Ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va yangilash, transport va muhandislik-kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirishni qo'llab-quvvatlash dasturlarini amalga oshirish natijasida 2014 yilda mamlakatimizda 1 millionga yaqin ish o'rni tashkil etildi. Ularning 60 foizi qishloq joylarda yaratilgani ayniqsa e'tiborlidir.

O'tgan yilda mamlakatimiz ta'lim muassasalarining 600 mingdan ziyod bitiruvchisi ish bilan ta'minlandi. Shunisi quvonarliki, yoshlarimizning aksariyat katta qismi o'z kelajagini kichik biznesda ko'rmoqda.

Bulardan tashqari, respublikamizda ilmiy pedagogik xodimlar va rahbar xodimlar malakasini oshirish oliy maktabi ham ishlab turibdi. Bu tizim malaka oshirish institutlari va fakultetlarini, aspiranturalarni, ijodiy ta'tillarni, qisqa muddatli kurslarni, oliy o'quv yurtlarida stajirofka qilishni, harakatdagi seminarlarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi bozor iqtisodi sharoitida mutaxassislarning malakasini bozor munosabatlari asosida oshirish davr talabi bo'lib turibdi. O'z bilimini tinmay oshirish, ilmiy texnika yangiliklarini o'zlashtirib borish bozor qonuniyatlarining asosidir.

1.3. Ish bilan bandlik darajasi va uning tarkibini aniqlashning uslubiy jihatlari

Hozirgi vaqtda rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlarida davlat tomonidan mehnat munosabatlarni tartibga solish, mehnat sharoiti va to'lovi, turli xil xavf-xatardan ish haqini yo'qotishni kompensatsiyalash, ishchilarni huquqiy himoyalashni ta'minlash zarurligi bilan bog'liqdir. Masalan, XVII-XVIII asrlarda ro'y bergan sanoat inqilobigacha rivojlangan mamlakatlar aholisining asosiy qismi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bilan band edi. Barcha sohalarda ishlab chiqarishning rivojlanishi qishloq xo'jaligida ishchi kuchining zichligining tarixi bilan bog'liq. Ijtimoiy mehnat taqsimlanishi jarayonining chuqurlashuvi qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning ayrim operatsiyalarining qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash bilan bog'liq bo'lgan yangi mustaqil sohalarning vujudga kelishiga asos bo'ldi.

Shu munosabat bilan qishloq xo'jaligida foydalanilgan ishchi kuchi boshqa tarmoqlarga qayta taqsimlanadi. Endi tadbirkorlar va iste'molchilar asbob-uskuna, ba'zi iste'mol mollarni qishloq xo'jaligidan olishmaydi, balki bevosita shu mashinalarni va iste'mol buyumlarini yaratuvchi sohalardan oladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan talab muayyan chegaragacha o'sib boradi, so'ngra esa to'xtab qoladi. Masalan, meva-sabzavot mahsulotlariga talab, bug'doyga bo'lgan talab daromad oshgan sari oshib boradi, ammo oshish dinamikasi pasayuvchi bo'ladi. Bunday mollarni "hayotiy ehtiyojlarni qondiradigan mollar" deb atashadi. Odamlar hayotiy ehtiyojlarini qondirgandan so'ng, hayotiy ehtiyojlarni qondiradigan mollarga talabni to'xtatib, yangi qimmatbaho mahsulot va xizmatlarga talabni oshirishadi (avtomobil, turizm va hokazo). Natijada an'anaviy tarmoqlarda (qishloq xo'jaligi) ishlab chiqaruvchilar talab o'sishining to'xtashiga duch kelishadi va xarajatlarni kamaytirish orqali daromad topishga kirishishadi. Buning natijasida, masalan, qishloq xo'jaligi sohasida ish jarayoni mexanizatsiyasi amalga oshadi, qo'shimcha ishchi kuchi qishloq xo'jaligidan siqib chiqariladi. Bu esa o'z navbatida qishloq xo'jaligida mehnat unumdorligining oshishiga va qishloq xo'jaligida band bo'lgan aholi sonining kamayishiga olib keladi.

1930 yildan 1960 yilgacha AQSh da qishloq xo'jaligidagi ishchilar soni 2,7 barobarga qisqartirildi, ya'ni – 4,3 mln kishidan 1,6 mln kishigacha. 1960 yildan 1985 yilgacha esa 1,8 barobarga qisqartirildi, ya'ni – 1,6 mln kishidan 0,9 mln kishigacha qisqartirildi. Yaponiyada esa 1986 ta oilaviy fermer xo'jaliklardagi ish bilan bandlarning soni 3,8 barobarga qisqardi – ya'ni 8,3 mln kishidan 2,4 mln kishigacha qisqardi (1-jadval). Ishchi kuchini qayta taqsimlash faqat, ishchi kuchini qishloq xo'jaligida yoki boshqa sohalarda tejalgandagina sodir bo'libgina qolmaydi. Balki, bunday qayta taqsimlanish qaysi sohada bo'lmasin barcha holatlarda sodir bo'ladi.⁴²

Tahlillar shuni ko'rsatyaptiki, qayta ishlash sektorlarida band bo'lgan ishchilar soni qisqartirilsa, xizmat ko'rsatish sohasida ishchilar bandligi oshadi (1.3.1.-jadval).

Hisob-kitoblarga qaraganda, olinayotgan qishloq xo'jalik mahsulotlari miqdorini ishlovchilar sonini 1,5–2 million kishidan oshirmagan holda ham olish mumkin. Demak biz ishlab chiqarishga mutlaqo zarar etkazmagan holda 1,5

⁴² Ryaeantsev SV. Mirovoy rinoq truda i mejdunarodnaya migratsiya: Uchebnoe posobie. — Moskva; ZAO «Izdatelstvo «Ekonomika», 2010. S. -32.

millionga yaqin kishini bu sohadan ozod etishimiz mumkin. Agar biz qishloq xo'jaligidagi bu ortiqcha ishchi kuchidan to'laqonli va unumli foydalanib, ularni iqtisodiyotning ishchi kuchiga ehtiyoj sezayotgan tarmoqlariga jalb qilsak, mehnat unumdorligining oshishiga, o'z navbatida, iqtisodiy yuksalishga erishamiz.

1.3.1-jadval.

Rivojlangan mamlakatlarda ish bilan bandlikning tarmoqlar bo'yicha tuzilishi, % (2014 y)³⁴.

| Mamlakatlar va hududlar | Jami ish bilan bandlar | Qishloq xo'jaligi | Sanoat | Qurilish, transport va aloqa | Savdo, umumiy ovqatlanish, moliya, uy-joy kommunal xo'jaligi | Boshqalar |
|---------------------------|------------------------|-------------------|--------|------------------------------|--|-----------|
| Amerika Qo'shma Shtatlari | 100 | 0,7 | 13,8 | 4,9 | 78,4 | 2,2 |
| Yaponiya | 100 | 8,0 | 23,6 | 15,0 | 50,2 | 3,2 |
| Germaniya | 100 | 4,5 | 30,2 | 12,5 | 45,0 | 7,8 |
| Frantsiya | 100 | 7,5 | 22,8 | 14,0 | 46,9 | 8,8 |
| Buyuk Britaniya | 100 | 2,1 | 24,2 | 14,9 | 48,0 | 10,8 |
| O'zbekiston | 100 | 25,5 | 13,2 | 12,1 | 12,7 | 36,5 |

Hozirgi kunda xizmat sohasida borgan sari yangi mehnat o'rinlari tashkil etilmoqda va bu soha iqtisodiyotda yangi sektor sifatida rivojlanmoqda. Natijada, YaMMda sanoat va qishloq xo'jaligining ulushi pasayib, ularning o'rniga xizmat ko'rsatish sohasining ulushi o'smoqda. Ammo bu – rivojlangan davlatlar iqtisodiyoti “deindustrializatsiya qilinadi” degani emas.

Agar sanoatning ulushi YaMMda qisqarsa ham uning jon boshiga to'g'ri keladigan absolyut qiymati o'sadi va xizmat sohasidagi ishchilarning ko'payishi faqatgina mehnatning deindustrializatsiya bo'layotganligidan dalolat beradi.

Rivojlangan davlatlardagi sanoat va qishloq xo'jaligining YaMMdagi ulushining kamayishi - shu sohalarning samaradorligidan dalolat beradi, ya'ni bu sohada xarajatlar kamaygan bo'ladi.

³⁴ Manba: ILO. Year Book of Labour Statistics.-Geneva, 2011. Page: 240-243, 274-279, 340-341, 336-339, 386-389. O'zbekiston Iqtisodiyoti. 2011-yil, 8-soni 28-bet.

Oxirgi 25 yil davomida ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda qayta ishlovchi sanoatda ish bilan bandlik ulushining qisqarishi kuzatilmoqda. Masalan, AQShda qayta ishlovchi sanoatda ish bilan bandlikning tig'iz pallasi 1965 yilda yuzaga keldi (28%). 1990 yillarning o'rtasiga kelib bu ko'rsatkich 16% ga tushdi. Yaponiyada sanoatda ish bilan bandlik ulushining kamayishi 1973 yilda boshlandi. 1990 yil o'rtalarigacha (27,0% dan 23,0% gacha) qisqardi. Shu bilan birga, AQShda xizmat ko'rsatish sohaslarida ish bilan bandlik ulushi 1960 yilda 56,0% dan 2009 yilgacha 78,4% gacha oshdi. Qayta ishlash sanoatiga qaraganda xizmat ko'rsatish sohasining mehnat unumdorligi sezilarli darajada sekin o'sdi, bu esa xizmat ko'rsatish sohasining narxlari yanada tezroq oshishiga, sanoat sohasida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning narxining pasayishiga olib keldi.

Kasb va malaka bo'yicha aholini ish bilan bandligi tarkibining shakllanishi. Endi biz etakchi mamlakatlardagi ish bilan bandlikning o'zgarib borayotgan kasbiy-malakaviy tarkibning shakllanishini tahlil etamiz. Undan oldin bir narsani ta'kidlash lozimki, tarix davomida "ishchi kuchi malakasi" "ishchi kuchi miqdori" tushunchasidan zarurroq bo'la boshladi. Yana bir narsani ta'kidlash kerakki, hozirgi paytda iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlarda o'ziga xos ish bilan bandlik sohasida kasbiy-malakaviy tarkib vujudga keldi. Uchinchidan, ishchi kuchi malakasi oshishi band bo'lgan ishchi kuchi miqdorining qisqarishiga, demak tarkibiy o'zgarishlarga olib keladi.

Boshqaruvchi, mahoratli kasb egalari va texniklar mutaxassisligi barcha mamlakatlarda deyarli ommaviylashib bormoqda. XX asr oxiridan boshlab asosiy e'tibor ishlab chiqarishni «strategik» boshqarish (yangi texnologiyalarni avtomatlashtirish tizimi), tashkiliy strukturalarni qayta qurish, tadbirkorlik, inson resurslarini boshqarish va kooperativ shakllantirish muammolariga qaratilgan. Shu bilan birga u yoki bu kasblarning nufuzliligi va talabgorligini baholashda ham ma'lum mamlakatlararo hususiyatlar mavjud. (1.3.2-jadval)

1.3.2-jadval.

AQSh va Rossiyada eng nufuzli va eng ko'p haq to'lanadigan kasblarning qiyosiy tahlili³⁵

| AQSh | Rossiya |
|---|---------------------------|
| Eng nufuzli kasblar | |
| 1. O't o'chiruvchilar (57%) | 1. Yurist (28%) |
| 2. Olim (56%) | 2. Iqtisodchi |
| 3. Vrach (53%) | 3. Moliyachi |
| 4. Tibbiyot hamshirasi va o'qituvchi (52%) | 4. Menedjer |
| 5. Harbiy va politsiyachi (46%) | 5. Biznesmen |
| 6. Fermer (41%) | 6. Vrach |
| 7. Ruhoniy (40%) | 7. Davlat hizmati xodimi |
| 8. Injener (40%) | 8. Programmist |
| 9. Kongressmen (28%) | 9. Buxgalter |
| 10. Jurnalist (18%) | 10. shou-biznes xodimi |
| 11. Akter (15%) Kamroq obro'ga ega bo'lgan kasblarga rielter, birja brokeri va bankir kiradi (6%) | |
| Eng ko'p haq to'lanadigan kasblar | |
| 1. Vrach-anesteziologlar (yiliga 193 ming dollar) | 1. Bankir |
| 2. Xirurglar (yiliga 191,4 ming dollar) | 2. Biznesmen |
| 3. Ortodontologlar (yiliga 185,3 ming dollar) | 3. Yurist |
| 4. Stomatologlar | 4. Direktor (menedjer) |
| 5. Bola tug'ilishi bilan bog'liq vrachlar | 5. Davlat hizmati xodimi |
| | 6. Iqtisodchi (moliyachi) |
| 10. Top-menedjer (yiliga 151,4 ming dollar) | 7. Vrach |
| 11. Pilot (yiliga 148,6 ming dollar) | 8. Buxgalter |
| Yigirmatalik sanoatdagi injiner-menedjerlar va advokatlar bilan tugaydi. 25-o'rinda yiliga 106,2 ming dollar haq oluvchi moliyaviy menedjerlar turadi | 9. Programmist |
| | 10. Shou-biznes hodimi |

³⁵ Manba: Ryaentsev SV. Mirovoy rinq truda i mejdunarodnaya migratsiya: Uchebnoe posobie. — Moskva; ZAO «Izdatelstvo «Ekonomika», 2010. S. — 34.

Jadvaldan ko'rib turganimizdek, AQShda ko'proq haq to'lanadigan kasblar u yoki bu xolda inson salohiyatini shakllantirish bilan bog'liq ekan. Rossiyada esa aksincha. Head Hunter agentligining ma'lumotlariga ko'ra halqaro mehnat bozorida yaqin o'n yilda muhandislar, axborot texnologiyalari sohasi mutaxassisleri va kompyuter ta'minoti ishlab chiquvchilari, nano texnologiyalar sohasidagi mutaxassislar, elektronika va biotexnologiyalar bo'yicha mutaxassislar, marketologlar, hizmatlar, logistika, ekologiya, tibbiyot, kimyo sohalari bilan bog'liq mutaxassislar talabgor bo'ladilar.

Hozirgi paytda Rossiyada o'z kasbi bo'yicha faqatgina har beshinchi bitiruvchi ishga joylashishi mumkinligi qayd etilgan.

Ko'pchilik rivojlangan mamlakatlar orasida Yaponiya o'zining mutaxassisliklar tarkibini ancha yaxshiladi. Bu erda menejerlar ulushi (20 yil mobaynida) 46,2% ga o'sdi va malakali ishchi, hamda texnik ishchilar soni 91,4% ga o'sdi. Buyuk Britaniyada ham menejerlar soni 96,3% ga o'sdi, lekin mutaxassislar hamda texnik ishchilar soni 5,2% ga kamaydi. Shunday qilib, biz menejer, mahoratli kasb egalari va texnik ishchilar guruhida ish bilan bandlik oshishi sur'atlari xar xilligini kuzatishimiz mumkin. Buning asosiy sababi, mazkur mamlakatlarning boshlang'ich vaziyati har xil bo'lganligidir. Ammo umuman olganda barcha mamlakatlarda mazkur kasblar guruhining umumiy ish bilan bandlikdagi ulushi oshishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiy samaradorlikning oshishi, iste'mol mollari sonining va turlarining ko'payishi insonlarning turmush darajasini ko'taradi va ular boyitdi. Bunga ijtimoiy yo'naltirilgan milliy xo'jalikning o'sishi ham sabab bo'ladi.

Shu tariqa, biz tomondan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shunday xulosa qilsa bo'ladi – har bitta hududda, jamiyatdagi ishlab chiqarish har bir tarmoqda mehnat samaradorligini doimiy oshirishga asoslangan. Aholini samarali ish bilan bandligi sharoitidagina jamiyatning boyligi oshishi mumkin.

Mehnat samaradorligini oshirish ma'nosi alohida hududiy ishlab chiqarish doirasidan chiqib ketadi. Uning oshishi - mikrodarajadagi vaqtni tejash, xalq xo'jaligida, ya'ni makrodarajada ko'p sonli tarmoqlar va ishlab chiqarishlarning

shakllanishi uchun fundament, asos bo'la oladi. Yangi tarmoqlardagi ishlab chiqarishning rivojlanishi esa chiqarilayotgan mahsulotlarning hajmi va hilma-hilligining ko'payishi omilidir va o'z o'zidan – jamiyat boyligining, ijtimoiy hayot darajasining oshishidir.

Aholini ish bilan bandligi tarkibi shakllanishida ilmiy-texnik taraqqiyotning o'rni. Aholini samarali ravishda ish bilan ta'minlash tizimini rivojlanishi zamirida - ishlab chiqarishining o'sishi va har bir band odamning samarali ishlashining o'sishi yotibdi. Biroq, ishchilarning tajriba va mahorat darajasini oshirmasdan turib mehnat unumdorligini oshirib bo'lmaydi. Milliy iqtisodiyotdagi mahoratli ishchilarning qanchalik ko'p bo'lishi shunchalik mehnat unumdorligini va shunchalik rang-barang bo'lgan xizmat va mahsulotlarning ko'p bo'lishini anglatadi. Iqtisodiyotning rivojlanishini aniqlovchi asosiy omil bugungi kunda ishchi kuchining sifatidir.

Hozirgi kunda tajribali mutaxassisga, ularning mahoratini oshirishga sarflanadigan xarajatlar butunligicha insoniy xarajatlar sifatida qaralmoqda. Unga to'la asos bilan ishchilar sog'lig'ini ta'minlashga sarflanadigan xarajatlar ham kirib ketadi. Kuzatishlarga asosan, AQShdagi ishchilarni tajribali mutaxassis ishchilar guruhiga kiritish uchun ishchi kamida o'rta maktabda tahsil olgan bo'lishi kerak ekan. Ma'lumotlarga asoslanadigan bo'lsak, 30 ta ommaviylashib borayotgan mutahassisliklar orasida 2/3 qismidan ko'prog'i, hamda shu 30 ta kasb egalarining yarmi 1990 yilda o'rta ta'lim muassasalarida tahsil olgan.

T.Shults Amerikadagi insoniy zahiralarni investitsiyasiga son jihatdan birinchilardan bo'lib baho berdi. Oxirgi 40 yil ichida ta'limga investitsiya kiritish 20 barobarga oshdi. 1997 yilda byudjetdan ta'limga ajratilgan sarflar 450 mlrd. dollar atrofida edi. Mutaxassislarning malakasi va tajribasini oshirishga qaratilgan investitsiya jismoniy kapitalga kiritilgan investitsiyadan 3 barobarga ko'p bo'ldi (440 mlrd. dollar). Insoniy resurslarga byudjetdan ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minotga jami 1 trln. dollarga yaqin mablag' sarflandi.

Insoniy kapitalga bo'lgan investitsiya hajmining o'sishi, YaIM ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sish bilan chambarchas bog'liq. Amerika iqtisodchilarining

hisob kitobiga qaraganda 1890 yilda YaIM ning 50% - hom-ashyo, mineral va energetik zahiralarga to'g'ri kelgandi. 100 yildan keyin ularning YaIMdagi ulushi 10,0% dan ham oshmadi.

Ilmiy-texnik taraqqiyot XX asrda ijtimoiy ishlab chiqarish va iqtisodiy o'sishni samarali oshishining asosiy manbai bo'ldi. Shuni ta'kidlash kerakki, ilmiy-texnik taraqqiyot u yoki bu ko'rinishida mehnat unumdorligining o'sishida namoyon bo'ladi. Bu omillarni ta'sirini AQSh milliy daromadi o'sishining uchdan biri ilmiy-texnik taraqqiyot omiliga to'g'ri kelganligi bilan tushuntirish mumkin. Evropaning rivojlangan mamlakatlari va Yaponiya urushdan keyingi 10 yillikda iqtisodiy o'sishga ilmiy-texnik taraqqiyot hisobiga, mehnat va kapitalni samarali joriy qilish natijasida erishishdi.

1.3.3.-jadval.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida aholini ish bilan bandligi tarkibi o'zgarishi, foizda³⁶

| Mamlakatlar va sohalar | Y illar | | | |
|------------------------|---------|------|------|-------|
| | 1990 | 1995 | 2000 | 2010* |
| Qozog'iston | | | | |
| Qishloq xo'jaligi | 23,0 | 22,0 | 22,0 | 20,0 |
| Sanoat va qurilish | 32,0 | 22,0 | 18,0 | 19,0 |
| Xizmatlar | 45,0 | 56,0 | 60,0 | 61,0 |
| Qirg'iziston | | | | |
| Qishloq xo'jaligi | 33,0 | 46,0 | 53,0 | 54,0 |
| Sanoat va qurilish | 28,0 | 16,0 | 11,0 | 9,0 |
| Xizmatlar | 39,0 | 38,0 | 36,0 | 37,0 |
| O'zbekiston | | | | |
| Qishloq xo'jaligi | 39,0 | 41,0 | 36,0 | 27,0 |
| Sanoat va qurilish | 24,0 | 19,0 | 21,0 | 23,0 |
| Xizmatlar | 37,0 | 40,0 | 43,0 | 50,0 |
| Tojikiston | | | | |
| Qishloq xo'jaligi | 43,0 | 59,0 | 68,0 | 71,0 |
| Sanoat va qurilish | 22,0 | 14,0 | 10,0 | 10,0 |
| Xizmatlar | 35,0 | 27,0 | 22,0 | 19,0 |
| Turkmaniston | | | | |
| Qishloq xo'jaligi | 42,0 | 45,0 | 48,0 | 50,0 |
| Sanoat va qurilish | 21,0 | 19,0 | 18,0 | 17,0 |
| Xizmatlar | 37,0 | 36,0 | 34,0 | 33,0 |

³⁶ Manba: S.V.Jukov, O.V.Reznikova. Tsentralnaya Aziya v sotsialno-ekonomicheskix strukturax sovremennogo mira. - Moskva: Moskovskiy obshchestvenniy nauchniy fond, 2001; *mamlakatlarning rasmiy statistik ma'lumotlari asosida hisoblangan.

Aksincha, XX asrning ikkinchi yarmi tarixida rivojlangan mamlakatlarda tabiiy boyliklarni, mehnatni qo'shimcha ravishda jalb qilish natijasida davomli iqtisodiy o'sishga misollar yo'q. Qanchalik miqdorda u yoki bu omilni ko'proq kiritilishi, shunchalik uning taqdirlanishini belgilaydi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston mamlakatlarida sanoat ulushining YaIMda pasayib ketishi boshqa MDH mamlakatlaridek yuqori bo'lmadi. Qiziqarlisi shundaki, agrar sektorining YaIMdagi ulushi O'zbekistonda va Qozog'istonda ozgina kamaygan bo'lsada, Markaziy Osiyoning qolgan qator mamlakatlarda u keskin ravishda oshib ketdi (1.3.3-jadval).

Bu holatni mamlakatlardagi rejali iqtisodiyotda qurilgan iqtisodiy tarmoqlarning parchalanishi va iqtisodiyotning tarkibi yangi vaziyatga moslashib borishidan dalolat beradi. Eng muhimi shundan iboratki, agar mamlakat rahbariyati hohlasa, u tarkibiy iqtisodiy siyosatni oqilona ravishda olib borishi mumkin va bunday keskin o'zgarishlar sur'atiga ta'sir qilishi mumkin.

Masalan, O'zbekistonda 90-yillardan boshlab, iqtisodiyotning tarkibiy o'zgarishlari davlat tomonidan qattiq nazoratga olindi. Narh-navoni erkinlashtirish, mulk shaklini o'zgartirish, valyuta bozorini shakllantirish kabi vazifalar asta-sekinlik bilan amalga oshirildi. Buning natijasida, 1990-2000 yillarda tarkibiy siljishlar deyarli sezilarli bo'lmadi va band aholining tarmoqlardagi ulushlari 3% dan ko'pga o'zgarmadi.

Shu bilan birga, Qozog'iston va Qirg'izistonda tarkibiy siljishlar intensiv sur'atda amalga oshdi, chunki bu mamlakatlarda ichki va tashqi iqtisodiy erkinlashtirish amalga oshirildi.

I - bob bo'yicha xulosa:

Xizmat ko'rsatish sohasida mehnat qilayotgan kishilar, bozor subektlari o'zaro iqtisodiy munosabatda bo'ladi. Ular o'z mehnatlari bilan insonlarning salomatligini taminlaydilar, kasb-hunar o'rgatadilar, bilim va tarbiya beradilar,

yani mehnat faoliyatiga tayyorlaydilar, sog'lom avlodni voyaga etishiga xizmat qiladilar.

Mehnatga layoqatli aholi sonining o'sib borish sur'atlari oshgan va iqtisodiyotning ayrim tarmoqlarida ortiqcha ishchi kuchi yuzaga kelgan, ishlab chiqarish bir shaklida boshqa shaklga o'zgartirilayotgan bir sharoitda O'zbekistonda to'laqonli mehnat bozorini shakllantirishga g'oyat jiddiy e'tibor berilmoqda. Mehnat qilishning ixtiyoriylik tamoyili qonun bilan mustahkamlangan, majburiy mehnat man etilgan, ishsizlarni ijtimoiy himoyalash, ularni yangi kasblarga o'rgatib qayta tayyorlash mexanizmi yaratilgan.

Bulardan tashqari, respublikamizda ilmiy pedagogik xodimlar va rahbar xodimlar malakasini oshirish oliy maktabi ham ishlab turibdi. Bu tizim malaka oshirish institutlari va fakultetlarini, aspiranturalarni, ijodiy ta'tillarni, qisqa muddatli kurslarni, oliy o'quv yurtlarida stajirofka qilishni, harakatdagi seminarlarni o'z ichiga oladi.

Mazkur bobda ko'rib chiqilgan masalalarga yakun yasab quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin.

Birinchidan, shuni ta'kidlash mumkinki, aholi ish bilan bandligining nazariy asoslari asrlar davomida shakllangan va rivojlantirilgan. Bu ta'limotda, asosan to'rtta: klassiklar, keynschilar, monetarchilar va institutsionalchilar maktablari farqlanadi.

Ish bilan bandlik nazariyalari insoniyat tarixining turli davrlarida o'z o'rniga ega bo'lib, amaliyotda qo'llanilib keldi. Hozirgi paytda, o'ylaymizki, O'zbekistonda ish bilan bandlikning keyns siyosatini amalga oshirish uchun yaxshi fursat tug'ilgan. Yangi ish o'rinlarini yaratish asosan ijtimoiy va bozor infratuzilmasida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi, chunki mazkur soha barcha iqtisodiy tarmoqlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning rivojlanishi boshqa tarmoqlarning rivojlanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, iqtisodiy adabiyotlarda "ish bilan band aholi tarkibi" tushunchasini ta'riflashda turli xil yondashishlar uchratiladi. Ammo bizning nazarimizda aholini ish bilan bandligi tarkibi tushunchasini atroflicha yoritilganini

inobatga olgan holda, ish bilan bandlik sohasidagi tarkibiy o'zgarishlar tushunchasini ta'riflash maqsadga muvofiq va unga ko'ra ish bilan bandlikning qayta tuzilishi yahlit jarayon sifatida ko'rib chiqiladi, bu esa iqtisodiy faol bo'lgan aholining faoliyat turlari, iqtisodiyotning tarmoqlari bo'yicha qayta taqsimlanishiga va o'zgarishlarga olib keladi.

Respublikada olib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning mazmun mohiyatlaridan kelib chiqib, bizning fikrimizcha, hozirgi kunda ish bilan band aholi tarkibini xududlar, tarmoqlar, mulk shakli, malaka darajalari, kasblar guruhlari, demografik belgilar bo'yicha bo'yicha tasniflash mumkin.

Uchinchidan, horijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganish yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlar asosida shunday xulosa qilsa bo'ladi – har bitta hududda, jamiyatdagi ishlab chiqarish har bir tarmoqda mehnat samaradorligini doimiy oshirishga asoslangan. Aholini samarali ish bilan bandligi sharoitidagina jamiyatning boyligi oshishi mumkin.

II-BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHAMIYATI VA TAHLILI

2.1.O'zbekistonda bandlikning tarmoqlar bo'yicha o'zgarish dinamikasi

Respublikada bandlikning tarmoqlar bo'yicha ulushidagi o'zgarishlarga har xil tamoyil hos bo'lgan. O'rganilgan davrda bandlikning ayrim tarmoqlaridagi ulushi ortib borgan bo'lsa, boshqalarida u pasayish tamoyiliga ega bo'lgan, uchinchisida esa nisbatan barqaror saqlanib qolgan.

Jumladan, iqtisodiyotning transport va aloqa, qurilish tarmoqlarida bandlikning ulushi 1,2 savdo umumiy ovqatlanish, moddiy-texnika ta'minoti va tayyorlash tarmoqlarini 1,3 barobardan ko'proqqa ortgan.

2.1.1-jadval

Respublika iqtisodiyotida bandlikning tarmoq tarkibi va uning o'zgarishi³⁷

| Tarmoq va sohalar | 2000 | 2005 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | O'zgarishi “+”,”-“ |
|--|------|------|------|------|------|------|------|-----------------------|
| Sanoat | 12,7 | 13,2 | 13,2 | 13,1 | 13,0 | 12,9 | 12,8 | +0,1 |
| Qishloq xo'jaligi | 34,4 | 22,1 | 26,9 | 27,2 | 26,7 | 27,2 | 27,6 | -6,8 |
| Transport va aloqa | 4,3 | 4,8 | 5,2 | 5,2 | 5,2 | 5,3 | 5,3 | +1,0 |
| Qurilish | 7,5 | 8,3 | 9,2 | 9,2 | 9,3 | 9,3 | 9,4 | +1,9 |
| Savdo,umumiy ovqatlanish,moddiy- texnika ta'minoti va tayorlash | 8,4 | 8,9 | 10,7 | 10,8 | 10,9 | 11,0 | 11,2 | +2,8 |
| Uy-joy, kommunal xo'jaligi, aholiga maishiy xizmat ko'rsatish | 2,8 | 3,1 | 3,4 | 3,5 | 3,5 | 3,6 | 3,6 | +0,8 |
| Sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya ijtimoiy ta'minot | 6,5 | 7,2 | 7,7 | 7,6 | 7,6 | 7,4 | 7,2 | +0,7 |
| Maorif, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatish | 12,8 | 13,6 | 13,8 | 13,7 | 13,4 | 13,1 | 12,8 | 0 |
| Moliya, kredit va sug'urta tizimi | 0,6 | 0,5 | 0,6 | 0,6 | 0,5 | 0,5 | 0,5 | -0,1 |
| Boshqa tarmoq va sohalar | 10,0 | 11,3 | 9,3 | 9,1 | 9,9 | 9,7 | 9,6 | -0,4 |

³⁷ Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

Mazkur tarmoqlarda bandlikning qayd qilingan, ortib borishi YaIMda ular maxsuloti ulushining o‘shishiga mos ravishda ro‘y bergan. Respublikada yaqin istiqbolda ham “yo‘l-transport va muxandislik-kommunikatsiya infratuzilmalarini qurish va rekonstruksiya qilish ishlari yuqori sur‘atlar bilan olib borilishi”³⁸, namunaviy loyixalar asosida yangi uy-joylar qurilishini va ijtimoiy sohani ustuvor rivojlantirish vazifalari bandlikda ular ulushi ortib borishini taqazo etadi.

Respublikada bandlikning tarmoq tarkibidagi keskin kamayishi qishloq qishloq xo‘jaligi soxasi ulushiga tegishli bo‘lgan. Agrar soxaning YaIMdagi ulushi 2014 yilda 2000 yilga taqqoslanganda 13,3 (30,1 dan 16,8) foizga qisqargani holda, bandlikdagi ulushining kamayishi 6,8 foizni tashkil qilgan. Demak, tarmoqning YaIMdagi ulushiga qaraganda bandlikdagi ulushi qisqarishi 2 barobarga yaqin kam bo‘lganligi xam qishloq xo‘jaligida band bo‘lgan mexnat resurslarining bir qismini boshqa tarmoqlar foydasiga qayta taqsimlanishning katta potensial imkoniyati mavjudligini ko‘rsatadi.

Respublika iqtisodiyotining sanoat tarmog‘ida nisbatan barqaror saqlanib qolgan bandlik, uning alohida tarmoqlari ulushining o‘zgarishida ham o‘z ifodasini topgan. Xususan, tarmoq ichidagi bandlikda sanoatning ayrim tarmoqlarida band bo‘lganlarning mutloq miqdori ortib borgan bo‘lsada, ularning umumiy ko‘rsatkichdagi nisbiy ulushi birmuncha barqarorlik tavsifiga ega bo‘lgan. Faqat ayrim tarmoqlardagina band bo‘lganlar sonining ko‘payishi, ularning umumiy bandlikdagi ulushi ko‘payishi bilan birga borgan.

2.1.2-jadval

Respublika iqtisodiyoti sanoat tarmoqlarida band bo‘lganlar ulushining o‘zgarishi (%da)³⁹

| Sanoat tarmoqlari | Yillar | | | | | | | O‘zgarishi “+”,”-“ |
|-------------------|--------|------|------|------|------|------|------|-----------------------|
| | 2000 | 2005 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | |
| Elektrenergetika | 5,6 | 7,1 | 7,1 | 6,9 | 6,9 | 7,0 | 7,1 | +1,5 |

³⁸ Каримов И.А. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади. Т.:Ўзбекистон, 2014 йил, 16-бет

³⁹ Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

| | | | | | | | | |
|---|------|------|------|------|------|------|------|------|
| Yoqilg'i sanoati | 2,8 | 4,5 | 6,2 | 6,3 | 6,9 | 6,9 | 7,1 | +4,3 |
| Metallurgiya | 8,8 | 11,4 | 16,1 | 16,0 | 15,2 | 15,1 | 14,9 | +6,1 |
| Kimyo va neft kimyo sanoati | 5,5 | 6,0 | 7,3 | 7,5 | 7,8 | 7,7 | 7,7 | +2,2 |
| Mashinasozlik va metalni qayta ishlash | 17,4 | 15,3 | 14,7 | 14,4 | 14,6 | 14,3 | 14,6 | -2,8 |
| O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va kog'oz sanoatida | 2,1 | 1,8 | 2,5 | 2,8 | 2,8 | 2,7 | 3,0 | +0,9 |
| Qurilish materiallari sanoati | 9,3 | 7,2 | 7,6 | 7,8 | 7,5 | 7,8 | 8,4 | -0,9 |
| Yengil sanoat | 22,9 | 20,5 | 21,5 | 21,3 | 21,2 | 21,5 | 20,6 | -2,3 |
| Oziq-ovqat sanoati | 16,3 | 15,5 | 9,9 | 10,0 | 10,2 | 10,0 | 9,9 | -6,4 |

Jumladan, yoqilg'i sanoatida ishlovchilarning o'rtacha soni 2000-2014 yillarda 40,2 mingdan 48,2 ming kishiga ya'ni 12,0%ga ortgan xolda ularning bandlikdagi ulushi 4,3%ga (2,8%dan 7,1%)ga ko'paygan. Mazkur ko'rsatkichning eng yuqori darajasi metallurgiya sanoatida kuzatiladi. Unda band bo'lganlar soni 63,1 mingdan 102,3 mintaga ortgani xolda, tarmoqda band bo'lganlardagi ulushi 1,7 barobar (8,8%dan 14,9%) o'sgan.

Bu ikki sanoat tarmog'ining bandlikdagi ulushining ortib borishi ularning umumiy sanoat maxsuloti xajmidagi salmog'ining xam xuddi shunday o'sishi bilan birga bormagan. 2000-2014 yillarda yoqilg'i sanoatida band bo'lganlar ulushi 2,5 barobardan qo'proqqa ortgani xolda, uning mazkur tarmoq mahsulotidagi salmog'i birmuncha kamaygan. (15,3%dan 13,3%ga kamaygan). Metallurgiya sanoatida band bo'lganlar ulushining yuqori darajada ortishi (1,7 barobar) sharoitida uning yalpi sanoat maxsulotidagi salmog'i deyarli o'zgarmagan. (faqat +0,2%ga ortgan)

2.1.3-jadval.

Respublikada sanoat maxsulotining umumiy xajmida alohida tarmoqlar maxsuloti ulushining o'zgarishi (% xisobida)⁴⁰

| Sanoat tarmoqlari | Yillar | | | | | | | O'zgarishi “+”, “-“ |
|-------------------|--------|------|------|------|------|------|------|------------------------|
| | 2000 | 2005 | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | |
| Elektrenergetika | 8,5 | 11,3 | 8,11 | 7,9 | 7,7 | 7,1 | 7,3 | -1,2 |
| Yoqilg'i sanoati | 15,3 | 16,2 | 19,8 | 17,3 | 18,0 | 15,0 | 13,3 | -2,0 |
| Metallurgiya | 11,4 | 19,4 | 13,3 | 13,0 | 12,6 | 11,3 | 11,6 | +0,2 |
| Mashinasozlik va | 9,9 | 13,0 | 16,1 | 16,2 | 17,5 | 18,8 | 19,2 | +9,3 |

⁴⁰ Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

| | | | | | | | | |
|-------------------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|
| metalni qayta ishlash | | | | | | | | |
| Qurilish materiallari sanoati | 5,4 | 3,6 | 4,9 | 5,3 | 5,5 | 6,5 | 6,4 | +1,0 |
| Yengil sanoat | 19,1 | 16,6 | 13,3 | 13,4 | 12,9 | 13,2 | 14,1 | -5,0 |
| Oziq-ovqat sanoati | 13,3 | 8,2 | 12,8 | 14,1 | 13,2 | 15,7 | 15,1 | +1,8 |

O'rganilgan davrda elektrenergetika sanoatining bandlikdagi ulushi $\frac{1}{4}$ hissaga ortib, uning umumiy sanoat maxsulotidan salmog'i esa 16,4% ga kamaygan. Respublika sanoatining boshqa tarmoqlarida bu ikki ko'rsatkich, ulushining o'zgarishi dinamikasida ayrim ijobiy tamoyillari xam kuzatiladi. Hususan, bu davrda mashinasozlik va metalni qayta ishlash sanoatining bandlikdagi ulushi $\frac{1}{5}$ xissaga yaqin kamaygani holda, umumiy tarmoq mahsulotidagi salmog'i 1,9 barobarga yaqin ortgan. Bu ijobiy tamoyil ko'p jixatdan mazkur tarmoqni modernizatsiyalash dasturining samarali amalga oshirganligi natijasi hisoblanadi.

Yengil sanoat tarmog'ida band bo'lganlar ulushining 2,3%ga kamayishi uning maxsuloti salmog'ining $\frac{1}{3}$ hissadan ko'proq qisqarishi bilan birga ro'y bergan. Oziq-ovqat sanoatining bandlikdagi ulushi 40%ga qisqargan sharoitda uning tarmoq maxsulotidagi ulushi 1,8% ga ortgan. Bu ma'lum darajada sanoatning mazkur tarmog'ida ishlab chiqarishning to'planuvi va kapitalning markazlashuvi jarayoni ro'y berayotganligini anglatadi.

Respublikada bandlikning tarmoq tarkibidagi ro'y beradigan istiqboldagi muhim o'zgarishlar sifatida quyidagilarni qayd qilish mumkin.

- Iqtisodiyotning, sanoat tarmog'ining mavjud quvvatlarini yangilash va modernizatsiyalash, ishlab chiqarishini diversifikatsiyalash hamda kooperatsiyalash asosida mahalliyashtirish dasturlarini amalga oshirish natijasida bandlikdagi ancha muhim miqdor va sifat o'zgarishlar uning alohida tarmoqlariga tegishli bo'ladi. Jumladan, sanoatning qazib oluvchi va undiruvchi tarmoqlarida, band bo'lganlar salmog'i nisbatan kamayib, uning qayta ishlovchi tarmoqlaridagi ulushi shunga mos ravishda ortib boradi. Bu avvalo, yoqilg'i, metallurgiya, kimyo va qurilish materiallari sanoatiga tegishli.

Boshqa sharoitlar o'zgaray kelganda sanoat tarmoqlaridagi bandlikning miqdor o'lchami ular mahsulotining yalpi xajmiga, nisbiy ulushi esa umumiy sanoat mahsulotidagi salmog'i o'zgarishiga mos bo'lishi zarur. Tarmoqda ichki bandlikni tartibga solishga qaratilgan chora-tadbirlar umumiy sanoat mahsulotidagi ulushi kamayib borishi sharoitida, band bo'lganlardagi salmog'i ortib borishining oldini olishga qaratilishi lozim. Sanoat tarmoqlarida bandlikni takomillashtirishning boshqa bir jihati, bu uning darajasini umumiy sanoat mahsulotidagi ulushiga yaqinlashtirib borishdir. Respublikada metallurgiya sanoatining umumiy sanoat mahsulotidagi salmog'i 2000 yilgi darajada qolgani holda, uning bandlikdagi ulushi 6,1% ga ortgan. Bu davrda yengil sanoatning tarmoq mahsulotidagi ulushi 5,0% ga yaqin, bandlikdagi salmog'i esa faqat 2,3% ga kamaygan. Sanoat tarmog'ining umumiy bandlikdagi ulushi butun o'rganilgan davrda barqaror (13,0% atrofida) saqlanib qolgan holda, uning YaIMdagi ulushi 2013 yilda 2000 yilga nisbatan 10%ga ko'payib, 24,2 %ga yetgan. Ayrim sanoat tarmoqlarida esa aksincha ularning tarmoq mahsulotidagi ulushidan bandlikdagi ulushi birmuncha yuqori bo'lgan. Bu metallurgiya sanoatida 1,3 va yengil sanoatida 1,5 barobarga yaqinni tashkil qilgan. Yoqilg'i, mashinasozlik va metalni qayta ishlash hamda oziq-ovqat sanoatlarida ularning bandlikdagi ulushidan tarmoq mahsulotidagi ulushi mos ravishda 1,9; 1,3 va 1,5 barobar yuqori bo'lgan. Bu barcha mavjud nomutanosibliklar sanoatni rivojlantirishning istiqboldagi innovatsion dasturlarini ishlab chiqishda tarmoqda samarali bandlikni ta'minlashga alohida e'tibor qaratish zarurligini anglatadi.

- Qishloq xo'jaligini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazishda band bo'lganlar mutloq va nisbiy ulushining kamayishi tarmoq mahsulotining YaIMdagi salmog'i qisqarishiga mutanosib ravishda bo'lishiga erishib borishga qaratilishi zarur. Tarmoqning bandlikdagi ulushi 2007 yildan boshlab nisbatan barqaror (26,0-27,0%) saqlanib qolgan holda, uning YaIMdagi salmog'i bu davrda 6,0% (23,2 % dan 17,2 %)ga yoki $\frac{1}{4}$ hissaga qisqargan. Qishloq xo'jaligida samarali bandlikni ta'minlashda tarmoq mahsulotini yetishtirish texnologiyasini tubdan o'zgartirish, asosan hosilni yig'ish jarayonlarini mehanizatsiyalash bilan birga qayta ishlovchi

sanoat korxonalari bilan kooperatsiya aloqalarni kuchaytirish, fermer xo'jaliklari negizida agro-sanoat majmualarini qaror toptirish, mahsulot yetishtirishni sanoat asosiga o'tkazish orqali ishlab chiqarishga tabiiy-iqlim sharoitlarining salbiy ta'sirini yumshatib borish muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

- Samarali bandlikni ta'minlash talabi hisobga olinganda iqtisodiyotning transport va aloqa tarmog'i boshqa tarmoq va soxalarga qiyosan ancha yuqori mavqega ega ekanligini kuzatish mumkin. Mazkur tarmoqning YaIM va bandlikdagi ulushi 2000 yilda deyarli bir hil darajani (mos ravishda 7,7 va 7,5%) tashkil qilgani holda, 2014 yilda bu ikki ko'rsatkich o'rtasidagi farq birinchisi foydasiga 2,2 barobarga yaqin ortgan. Mazkur tarmoqda keyingi yillarda qaror topgan ijobiy tamoyillarni saqlab qolish nafaqat sohada balki butun milliy iqtisodiyotda samarali bandlikni ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Samarali bandlikka erishib borish talabi nuqtai nazaridan iqtisodiyotning qurilish hamda savdo tarmoqlarida va umumiy ovqatlanish sohalarida ishchi kuchidan foydalanilmayotgan katta potensial imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, qurilish tarmog'ining bandlikdagi ulushi 2000-2014 yilda $\frac{1}{4}$ hissaga ortgani holda, uning YaIM dagi hissasi deyarli o'zgarmay qolgan. Savdo va umumiy ovqatlanish sohalarining YaIM dagi ulushi kamayib borgan sharoitda, unda band bo'lganlar salmog'i $\frac{1}{3}$ barobarga ortgan. Demak, iqtisodiyotning mazkur tarmoqlarida ham samarali bandlikka erishib borish istiqboldagi vazifalardan hisoblanib, davlatning bu sohalarini innovatsion rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlari ko'proq mehnat unumdorligi va iqtisodiy faoliyat samaradarligini rag'batlantirish maqsadlariga yo'naltirilishi zarur.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholining ish bilan bandligini oshirish davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biridir. O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlashni yanada yaxshilash va farovonligini oshirishning eng muhim yo'nalishi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish va kasanachilik sohalarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani yanada rivojlantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov 2012 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2013 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzasida aholining ish bilan bandligi masalalari bo'yicha quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tdilar: "Yangi ish o'rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta'minlash 2013-yil va undan keyingi yillarga mo'ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo'nalishi bo'lib qoladi."⁴¹

Bugungi kunda mamlakatda aholini ish bilan bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan tarkibiy o'zgarishlar quyidagilarni qamrab oladi:

1. Aholining ish bilan bandligi tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish hamda ishsiz aholini yangi, mehnat bozorida raqobatbardosh kasb-hunarlariga o'rgatish.

2. Ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash, ayniqsa tarkibiy o'zgartirish va diversifikatsiyalashga e'tiborni kuchaytirish. Bu yangi ish o'rinlari yaratish bilan bir qatorda ichki va tashqi iste'molga mo'ljallangan yangi mahsulotlar ishlab chiqarishni va xizmatlar ko'rsatishni ham ko'zda tutadi.

3. Ish bilan bandlikka ko'maklashuvchi markazlar faoliyatini takomillashtirish, bunda eng avvalo ushbu markazlar tuzilmasini maqbullashtirish, global inqiroz sharoitida ustuvor chora-tadbirlarni belgilab olish, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish vazifalaridan kelib chiqqan holda aholini ish bilan ta'minlash uchun ajratilayotgan moliyaviy mablag'larni oqilona taqsimlash chora-tadbirlarni amalga oshirishni talab etadi.⁴²

⁴¹ I. Karimov. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. //“Xalq so'zi” gazetasi. 2013 yil 19 yanvar, № 13.

⁴² Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. – B.136-138.

2.1.4-jadval.

O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari tarkibining o'zgarishi (ming kishi hisobida)⁴³

| Ko'rsatkichlar | Y i l l a r | | | | | 2014 yil 2009yilga nisbatan o'zgarishi | |
|---|-------------|---------|---------|---------|---------|---|-------|
| | 2009 | 2010 | 2012 | 2013 | 2014 | +,- | % |
| O'rtacha doimiy aholi soni, yil oxiriga | 27072,2 | 28001,4 | 29123,4 | 29555,4 | 29994,6 | 2922,4 | 110,8 |
| Mehnat resurslari | 15644,9 | 16123,6 | 16504,2 | 17309,8 | 17663,1 | 2018,2 | 112,9 |
| Mehnatga layoqatli mehnat yoshidagilar | 15458,7 | 15872,7 | 16263,6 | 17156,8 | 17550,2 | 2091,5 | 113,5 |
| Ishlayotgan o'smirlar va pensionerlar | 186,2 | 250,9 | 240,6 | 153,0 | 112,9 | -73,3 | 60,6 |
| Iqtisodiy faol aholi | 11547,2 | 11916,6 | 12256,6 | 12541,5 | 12841,5 | 1294,3 | 111,2 |
| Iqtisodiy nafaol aholi | 4012,8 | 4226,4 | 4469,4 | 4768,3 | 5068,3 | 1055,5 | 126,3 |

Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi aholisi va mehnat resurslari sonining o'sishi tahlilini keltirish o'rinli deb hisoblaymiz (2.1.4-jadval).

2.1.4-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turganimizdek, doimiy aholi soni 2014 yilda 2009 yilga nisbatan 6,8 %ga o'sgan, buning sababi so'nggi yillarda mamlakatda tug'ilish darajasining yuqoriligidir. Aholi soni o'sishi bilan bir qatorda mehnat resurslari soni ham 15 %ga o'sgan. Mehnat resurslari tarkibida mehnat yoshidagi mehnatga layoqatli aholi soni ham o'sib, 2014 yilda 2009 yilga nisbatan 17,1 %ni tashkil qilgan, ishlayotgan pensioner va o'smirlar soni 53 %ga kamaygan. Iqtisodiy faol aholi soni 2014 yilda 2009 yilga nisbatan (11,2 %ga, iqtisodiy nafaol aholi soni 26,3 %ga o'sganini ko'rish mumkin. Buning asosiy sababi aholini mehnatga bo'lgan munosabatining o'zgarishidir.

⁴³ Manba: O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Ko'rilayotgan davrda mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati respublika hududlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri) esa past bo'lgan. 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mehnat resurslari jami aholining 60,7 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida to'plangan.

O'zbekiston Respublikasida yangi ish o'rinlarini tashkil etish, iqtisodiyot tarmoqlari tarkibini diversifikatsiya qilish, malakali mutaxassislar tayyorlash va shuningdek, 12 yillik majburiy ta'lim tizimiga o'tish borasida ko'rilgan chora-tadbirlar aholining ish bilan bandlik darajasini yanada oshirish imkonini berdi (2.1.5-jadval).

2.1.5-jadval.

O'zbekiston Respublikasida ish bilan band aholi soni dinamikasi (ming kishi hisobida)⁴⁴


| Hududlar | Y i l l a r | | | | | 2014 yilda 2009 yilga nisbatan o'zgarishi | |
|-------------------------------|-------------|--------|--------|--------|--------|--|-------|
| | 2009 | 2010 | 2012 | 2013 | 2014 | +,- | % |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 561,1 | 566,1 | 580,8 | 590,0 | 600,2 | 39,1 | 107,0 |
| <i>viloyatlar:</i> | | | | | | | |
| Andijon | 1047,3 | 1063,0 | 1112,1 | 1144,8 | 1176,4 | 129,1 | 112,3 |
| Buxoro | 729,1 | 748,5 | 768,1 | 784,7 | 804,5 | 75,4 | 110,3 |
| Jizzax | 360,6 | 396,6 | 381,6 | 392,4 | 403,0 | 42,4 | 111,8 |
| Qashqadaryo | 908,7 | 934,9 | 971,7 | 1003,8 | 1036,6 | 127,9 | 114,1 |
| Navoiy | 396,7 | 404,6 | 408,0 | 413,4 | 418,6 | 21,9 | 105,5 |
| Namangan | 763,3 | 790,1 | 815,3 | 841,7 | 872,2 | 108,9 | 114,3 |
| Samarqand | 1152,0 | 1186,7 | 1229,9 | 1269,8 | 1314,5 | 162,5 | 114,1 |
| Sirdaryo | 304,1 | 318,9 | 320,0 | 327,5 | 334,8 | 30,7 | 110,1 |
| Surxondaryo | 722,5 | 744,6 | 784,5 | 817,8 | 843,0 | 120,5 | 116,7 |
| Toshkent | 1097,5 | 1127,0 | 1155,4 | 1183,5 | 1215,5 | 118 | 110,8 |

⁴⁴ Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

| | | | | | | | |
|----------------------------|----------------|----------------|----------------|----------------|----------------|---------------|--------------|
| Farg'ona | 1280,1 | 1318,0 | 1340,5 | 1367,6 | 1398,8 | 118,7 | 109,3 |
| Xorazm | 571,1 | 583,0 | 606,7 | 625,2 | 643,4 | 72,3 | 112,7 |
| Toshkent sh. | 1140,8 | 1145,8 | 1153,8 | 1156,7 | 1162,3 | 21,5 | 101,9 |
| Respublika bo'yicha | 11035,4 | 11328,1 | 11628,4 | 11919,1 | 12223,8 | 1188,4 | 110,8 |

2.1.5-jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2009-2014 yillar mobaynida ish bilan band bo'lgan aholi soni 1188,4 ming kishiga yoki 10,8 foizga ortgan. Tahlil qilinayotgan davrda ish bilan band bo'lgan aholi soni respublikaning barcha hududlarida ham ortgan. Ammo, tahlillar uning o'sish sur'ati bir me'yorda kechmaganligini ko'rsatadi. Xususan, o'tgan besh yil davomida ish bilan band bo'lgan aholi sonining o'sish sur'ati Andijon (12,3%), Jizzax (11,8%), Qashqadaryo (14,1%), Namangan (14,3%), Samarqand (14,1%), Surxondaryo (16,7%) va Xorazm viloyatlarida (12,7%) respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan hududlarda esa past bo'lgan.

Iqtisodiyotda ish bilan bandlik tarkibini o'rganishda biz ularning iqtisodiyot sohalari bo'yicha taqsimlanishini ko'rib chiqishimiz kerak bo'ladi. Umuman olganda ish bilan bandlar iqtisodiyotning rasmiy va norasmiy sektorlarida faoliyat yuritishlarini kuzatish mumkin.(2.1.1-rasm)



2.1.1-rasm. Ish bilan band aholining iqtisodiyot sohaslarida taqsimlanishi⁴⁵

⁴⁵ Manba: Ish o'rinlari hisobini yuritish va balansini tuzish Metodikasi asosida muallif tomonidan tuzilgan.

2014 yil yakunlariga ko'ra ish bilan band aholi soni 12223,8 ming kishini tashkil etdi. Ulardan:

- iqtisodiyotning rasmiy sektorida - 7899,4 ming kishi;
- iqtisodiyotning norasmiy sektorida bandlar 3994,3 ming kishini tashkil etdi;
- 330,1 ming kishi mehnat faoliyatini chet ellarda amalga oshirganlar.

Iqtisodiyotning rasmiy sektoridagi ish bilan bandlik dinamikasini ko'rish uchun 2.1.6-jadvalga murojat qilamiz.


2.1.6-jadval.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band aholi tarkibining dinamikasi (ming kishi hisobida)⁴⁶

| Ko'rsatkichlar | Y i l l a r | | | | | 2014- yil 2009- yilga nisbatan o'zgarishi | |
|--|-------------|--------|--------|--------|--------|---|-------|
| | 2009 | 2010 | 2012 | 2013 | 2014 | +, - | % |
| Rasmiy sektorda ish bilan bandlar | 6867,0 | 7022,8 | 7264,9 | 7787,4 | 7899,4 | 1032,4 | 115,0 |
| <i>shundan:</i> | | | | | | | |
| -yirik korxonalarda | 2589,4 | 2599,5 | 2541,3 | 2779,8 | 2523,1 | -66,3 | 97,4 |
| -kichik biznes va fermer xo'jaliklarida | 2162,3 | 2206,9 | 2016,8 | 2338,4 | 2401,1 | 238,8 | 111,0 |
| -yakka tartibda ro'yhatdan o'tib tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar | 147,4 | 375,6 | 628,8 | 698,4 | 735,3 | 587,9 | 498,8 |
| -dehqon xo'jaliklarida | 1525,5 | 1615,0 | 1630,2 | 1745,0 | 1792,1 | 266,6 | 117,5 |
| -boshqa tashkilot va muassasalarda | 442,4 | 225,8 | 447,8 | 225,8 | 447,8 | 5,4 | 101,2 |

⁴⁶ Manba: O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

2.1.6-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, iqtisodiyotning rasmiy sektorida ish bilan band aholi 2014-yilda 2009-yilga nisbatan 1032,4 ming kishiga yoki 15,0 %ga ortgan. Shu bilan birga yirik korxonalarda ish bilan band aholi 66,3 ming kishiga yoki 2,6 % ga kamayganini ko'rish mumkin. Kichik biznes va fermer xo'jaliklarida band aholi 238,8 kishiga yoki 11% ga oshgani ko'rinadi. Yakka tartibda ro'yhatdan o'tgan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotganlar 587,9 ming kishiga yoki 4 barobarga ortgan. Shu bilan birga rasmiy sektorda ish bilan bandlar ulushini o'rganish ham maqsadga muvofiqdir.



2.1.2-rasm. 2014 yilda rasmiy sektorda ish bilan bandlar⁴⁷, %

Respublika bo'yicha ro'yhatdan o'tkazilgan ish bilan bandlar umumiy tarkibida yirik korxonalar, tashkilot va muassasalarda ishlovchilar ulushi 2014 yilda 31,9% tashkil etdi. Ro'yhatdan o'tkazilgan ish bilan bandlarning asosiy qismi (62,4%) kichik biznes, fermer va dehqon xo'jaliklarida, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan band bo'lganlar tashkil qildi.

Aholi bandligini ta'minlashda norasmiy segmentning roli muhim ahamiyat kasb etishi davom etmoqda. Bu holat ko'proq qishloq joylarida va ishlab chiqarish rivojlanishi etarli bo'lmagan tumanlarda, shu jumladan demografik omillar

⁴⁷ Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan

ta'sirida ishchi kuchi taklifi talabdan ko'proq bo'lgan mehnat bilan bandlikka talab yuqori bo'lgan hududlarda ko'proq namoyon bo'lmoqda.(2.1.4-jadval)

2.1.7-jadvaldan ko'rinib turibdiki, oxirgi besh yil ichida jami norasmiy sektorda ish bilan bandlar 140,8 ming kishiga yoki 3,7 %ga oshgan. 2014 yilda vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda ishlovchilar 2009 yilga nisbatan 5,7 ming kishiga yoki 0,4 %ga oshgan. Bu davrda ro'yxatga olinmagan yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlar 369,7 nafarga yoki 47,3 %ga oshganini ko'rish mumkin.

2.1.7-jadval.


O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning norasmiy sektorida ish bilan band bo'lgan aholi tarkibining dinamikasi, ming kishi hisobida⁴⁸

| Ko'rsatkichlar | Y i l l a r | | | | | 2014 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarishi | |
|---|-------------|--------|--------|--------|--------|---|-------|
| | 2009 | 2010 | 2012 | 2013 | 2014 | +,- | % |
| Norasmiy sektorda ish bilan bandlar | 3853,5 | 4018,0 | 4074,3 | 3833,3 | 3994,3 | 140,8 | 103,7 |
| <i>shundan:</i> | | | | | | | |
| -vaqtinchalik va mavsumiy ishlarda ishlovchilar | 1547,6 | 1348,5 | 1661,2 | 1326,9 | 1553,3 | 5,7 | 100,4 |
| -ro'yxatga olinmagan yakka tartibdagi tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlar | 781,4 | 1273,9 | 840,2 | 1283,9 | 1151,1 | 369,7 | 147,3 |
| -oila a'zolariga yordam berayotgan va mehnat munosabatlari siz ishlayotganlar | 1524,5 | 1395,6 | 1572,9 | 1222,4 | 1289,9 | -234,6 | 84,6 |

Oila a'zolariga yordam berayotgan va mehnat munosabatlari siz ishlayotganlar soni 2014 yilda 2009 yilga nisbatan 234 ming kishiga yoki 15,4 % ga kamayganini ko'rish mumkin. Shu bilan birga norasmiy sektorda ish bilan

⁴⁸ Manba: O'zbekiston Respublikasi mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bandlarning eng ko'p qismi bir martalik va mavsumiy ishlarni bajaruvchilar hisobiga to'g'ri kelmoqda. (2.1.3-rasm)



2.1.3-rasm. 2014 yilda norasmiy sektorda ish bilan bandlar⁴⁹, %

O'rganishlar natijalariga ko'ra jami mehnat resurslarining uchdan bir qismi (22,6%) ro'yxatga olinmagan bandlikka to'g'ri keladi. Norasmiy sektordagi bandlarning asosiy qismi vaqtinchalik va mavsumiy ishlarga (norasmiy bandlar umumiy soniga nisbatan 38,9%), shu jumladan ro'yxatdan o'tmagan yakka tartibdagi tadbirkorlarga (32,3%) to'g'ri kelgan. 1151,1 mingdan ortiq kishi yoki 28,8% o'z oilasiga yordamlashib yoki ish beruvchilar bilan (tadbirkorlarda) mehnat munosabatlarini rasmiylashtirmasdan ishlamoqdalar.

Mehnat bozori monitoringi barqaror iqtisodiy o'sish, inqirozga qarshi choralar dasturining hamda boshqa dasturlarni amalga oshirilishi oqibatida bandlikning tarmoq tarkibida ijobiy tendentsiyalar namoyon bo'lganini ko'rsatadi.

2.1. Aholi bandigini oshirishda xizmat ko'rsatish sohasining ulushi va uning tahlili

Mamlakatimizda qaror topgan tinchlik, barqarorlik va fuqarolar hamjihatligi respublikamizda olib borilayotgan siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy sohadagi tub islohotlar muvaffaqiyatiga tobora bog'liq bo'lib bormoqda. Mustaqillik yillari davomida aholini ish bilan ta'minlashga barcha sharoitlar yaratib berildi. Bandlik tuzilmalari takomillashtirildi, mehnat faoliyati turlari kengaytirildi va mehnatga

⁴⁹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

bo'lgan munosabatda ko'zga ko'rinarli ijobiy siljishlar yuz berdi. O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish jarayonlarida mehnat bozorini tartibga solish, bu boradagi tashkiliy-huquqiy negizlarni takomillashib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Iqtisodiy islohotlarning ayni davrdagi ustuvor vazifalaridan biri esa aholini kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka jalb qilishni yanada kuchaytirish chora-tadbirlari bo'lib, mamlakatda tadbirkorlar va mulkdorlar qatlamini shakllantirishni kengaytirish va asosan shu orqali aholi bandligini, iqtisodiy o'sishni taminlashga erishishdan iboratdir. Darhaqiqat, aholini ish bilan band etish masalalarini bartaraf etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni ahamiyati beqiyosdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish aholi bandligi darajasini oshishiga jiddiy tasir qiladi. Bundan tashqari, mazkur sohada yangi ish o'rinlarini tashkil etilishi budjetni iste'molga ajratadigan harajatlarini yengillashtirishga imkon beradi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi natijasida mamlakatimizda quyidagi ijobiy jarayonlar ro'y bermoqda:

- yangidan yangi sohalar ishga tushirilmoqda;
- iste'mol mollarning turi ko'paymoqda;
- davlat budjeti profitsitiga erishilmoqda;
- ishsizlikning muammolari bartaraf etilmoqda va hokazo.

Shuni alohida qayd etish kerakki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmi so'nggi yillarda 22%ga ko'paydi. Xorij kreditlarini, investitsiyalarini jalb qilish, bozor munosabatlarning kuchayishi, bozor infratuzilmasini yanada jadal faoliyatini tashkil qilish orqali erishildi.

Hozirda respublikada ro'yxatga olingan barcha korxonalarining 85 foizidan ko'prog'i kichik biznes sub'ektlari tarkibidagi korxonalaridir. Bu kabi kichik biznes korxonalari ish bilan band etish masalalarini hal etishda jiddiy o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Bugungi kunda ish bilan band jami aholining 77 foizdan ortig'i kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida mehnat qilayotgani va

mamlakatimiz boyligiga boylik qo'shayotgani yaqqol sezilib turibdi. Bu mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir.

2015 yilga kelib iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar davom etdi. Mamlakatimizda modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlari chuqurlashib bordi. Oqibatda bandlikni ta'minlash, odamlarimizning daromadi va hayot sifatini oshirishga bo'lgan imkoniyatlar ko'lami kengaydi. Ayniqsa xizmat ko'rsatish va servis sohasidagi kichik biznes sub'ektlarining jadal rivojlanishi kuzatildi. Buni yalpi ichki mahsulot o'sishining yarmidan ko'pi xizmat ko'rsatish sohasiga to'g'ri kelganligining o'zi tasdiqlab turibdi. Qolaversa, bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 54,5 foizga yetdi. Bu esa 2010 yildagi holatdan 5,5 punktga oshganligini ko'rsatmoqda. Jami aholi bandligida 50% dan ko'pi xizmat ko'rsatish va servis sohasida mehnat qilayotganligini anglatadi.

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, respublikamizda barcha kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining 50 foizidan ortiqrog'i va shu korxonalarda hamma band bo'lganlarning choragidan ko'prog'i xizmat ko'rsatish sohasiga, aniqrog'i, umumiy ovqatlanish va savdo sohasiga to'g'ri keladi. Bu sohalarni rivojlanishi iqtisodiyotning taraqqiyoti uchun foydali. Ammo boshqa tarmoqlarning rivojlanishi dinamikasida ham bu kabi sezilarli darajadagi o'zgarishlarga erishib bormog'imiz kerak.

Biroq, shunga qaramay ayni davrda ish bilan band etish masalalarida o'ziga xos muammolar yo'q emas. Chunki O'zbekiston aholisi bugungi kunda 30 mln. kishidan oshmoqda. Har yili mehnat resurslari tarkibiga 500 mingdan ziyodroq kishi qo'shilib borayotganligini aytadigan bo'lsak ish bilan band etishdagi muammolarni yanada keng ko'lamda hal etish talab etiladi. Qolaversa, nafaqadagi ayrim shaxslarning mehnat qilishga bo'lgan ishtiyoqlari bandlikni ta'minlashdagi jarayonlarni yanada jiddiylashtiradi.

Shuning uchun 2016 yilda "Aholi bandligini ta'minlash masalasi ham eng muhim vazifamiz bo'lib qoladi. 2016-yilda 990 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratish mo'ljallanmoqda, jumladan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, xizmat ko'rsatish sohasini izchil rivojlantirish hisobidan 660 mingdan ziyod ish o'rni

yaratiladi. 2016-yilda oliy o'quv yurtlari, litsey va kollejlarning 510 mingdan ortiq bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashimiz darkor⁵⁰.

Shunday ekan, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa qishloq joylarida yangi ish joylarini ochish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog'liq muhim ijtimoiy vazifalarni belgilab borish maqsadga muvofiq bo'ladi. Mehnat resurslarining ortib borishi tendensiyasi mavjud ekan, ijtimoiy vazifaning ustuvorligi yanada oshadi.

Bugungi kunda yoshlarda iqtisodiy tayyorgarlik, xo'jalik yurita olish, tejamkorlik singari xislatlar shakllanishi uchun yoshlarni maktab va maktabdan tashqari muassasalar, ishlab chiqarish, tadbirkorlik sohasida haqiqiy iqtisodiy faoliyatga iloji boricha ertaroq va faol jalb etish uchun imkoniyat yaratish maqsadga muvofiqdir⁵¹.

Hozir qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, sanoatlashgan qayta ishlash, trikotaj va tikuvchilik mahsulotlari ishlab chiqarish, qurilish mollari ishlab chiqarish, sayyohlik xizmati va shu kabi boshqa sohalarda kichik va xususiy korxonalarni rivojlantirishdagi keng imkoniyatlardan foydalanishimiz kerak.

2015 yilga kelib yaratilgan yangi ish o'rinlarining 62%dan ko'prog'i qishloq joylarida tashkil etilgan bo'lsa-da, ularning aksariyati savdo va xizmat ko'rsatish sohasidadir. Ko'rinib turibdiki, murakkab vaziyat faqat son bilan ham bog'liq emas, balki qayta tashkil bo'layotgan ish o'rinlari tarkibi ham ishga yaroqli aholining talablariga mos kelmaydi. Buning sababi, ish o'rinlarining asosiy qismi xususiy tadbirkorlik hamda savdo-vositachilik xizmati doirasidaligidir. Faoliyatning bu turida yangi ish o'rinlarini yaratish bir tomondan ishsizlar sonining o'sishini bir muncha ushlab tursada, bevosita tayyor mahsulot ishlab chiqarish bilan bog'liq ishchi o'rinlarini yaratishga e'tiborsizlik hududiy va mahalliy mehnat

⁵⁰ Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд кийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorlikка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. // Халқ сўзи. 16 январь, 2016.

⁵¹ Арипов О.А. Аҳоли бандлигини оширишда кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikнинг аҳамияти. // ЎзМУ «Иқтисодиётни модернизациялаш шароитида меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш ва аҳоли бандлигини ошириш йўллари» мавзусидаги республика миқёсидаги илмий-амалий конференция тўплами. –Т.: II-қисм, 2015. 153 бетлар.

bozori tizimini rivojlantirish samaradorligiga imkon bermaydi. Ayni paytda bu muammo xududning iqtisodiy taraqqiyotiga ham salbiy tasir ko'rsatadi. Aholining ijtimoiy taraqqiyotida esa barcha sohalardagi rivojlanishni ta'minlashga erishmog'imiz kerak.

Eng muhimi, "Ijtimoiy sohani rivojlantirish, aholining hayot darajasi va sifatini yanada oshirish bilan bog'liq masalalar bundan buyon ham e'tiborimiz markazida bo'lib qoladi"⁵².

Bizning fikrimizcha, ish bilan bandlikni oshirish masalalari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirish istiqbollari bilan bog'liq ekan, ushbu sohadagi mavjud muammolarni qisman oldini olish uchun qo'yidagi ishlarni tashkil etish maqsadga muvofiqdir:

- eng avvalo, qishloq joylarida xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma faoliyatini sifat jihatdan yaxshilash choralari ko'rish;

- nafaqat ijtimoiy infratuzilma, balki iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish maqsadidagi bozor infratuzilmasi faoliyatini ham kengaytirish chora-tadbirlarini joriy etish zarur. Keyingi yillarda bunga e'tiborning sustligidan iqtisodiy faoliyatdagi sub'ektlar mazkazga (shaharlarga) intilmoqdalar;

- kredit berish siyosatida e'tiborni ishlab chiqarish sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalariga chuqurroq qaratish zarur deb hisoblaymiz. Chunki ishlab chiqarishda yangi ish joylarini yaratish imkoniyatlari kengroqdir.

Bunday chora-tadbirlar ish bilan band etish masalalarini hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada kuchaytirish imkonini yaratadi. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, ayniqsa, qishloq joylarida yangi ish joylarini ochish hamda yoshlar orasida ish bilan bandlik muammosini hal etish bilan bog'liq zarur ijtimoiy vazifani bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

⁵² Каримов И.А. Бош мақсадимиз – мавжуд қийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодиётимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тadbirkorликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришдир. // Халқ сўзи. 16 январь, 2016.

Umuman olganda, respublika bo'yicha xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishda (2.2.1-jadval).

2.2.1-jadval.

2010-2014 yillarda O'zbekistonda aholi ish bilan bandligining xizmat ko'rsatish sohasi tarkibi bo'yicha taqsimoti (foiz hisobida)⁵³

| Ijtimoiy soha tarkibi bo'yicha | Y i l l a r | | | | | 2014 yil 2009 yilga nisbatan o'zgarishi % |
|---|-------------|------------|------------|------------|------------|---|
| | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | |
| Jami ish bilan band bo'lganlar | 100 | 100 | 100 | 100 | 100 | - |
| <i>shundan:</i> | | | | | | |
| qurilishda | 8,5 | 8,9 | 9,0 | 9,1 | 9,2 | 108,2 |
| transport va aloqada | 5,0 | 5,1 | 5,1 | 5,2 | 5,2 | 104,0 |
| savdo va sotiq, umumiy ovqatlanish, tayyorlashda | 10,3 | 10,5 | 10,6 | 10,7 | 10,4 | 101,0 |
| turar joy kommunal xo'jaligi va aholiga nomaishiy xizmat ko'rsatish turlarida | 3,3 | 3,4 | 3,4 | 3,5 | 3,5 | 106,0 |
| sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va ijtimoiy ta'minotda | 7,6 | 7,6 | 7,7 | 7,7 | 7,6 | 100,0 |
| ta'lim, madaniyat, san'at, fan va ilmiy xizmat ko'rsatishda | 13,9 | 13,9 | 13,9 | 13,9 | 13,4 | 96,4 |
| boshqa sohalarda | 10,4 | 10,5 | 11,0 | 11,2 | 9,9 | 95,2 |

Jadvaldan ko'rinib turganidek, mamlakatimizda keng bunyodkorlik ishlarining jadal amalga oshirilishi natijasida qurilish sohasida mehnat qilayotganlar ulushi (8,2 %ga) yuqori sur'atlarda ko'paymoqda.

Ishchi kuchining tarmoqlararo taqsimlanishi, shu tarmoqlarga jalb etilgan ishlab chiqarish vositalari bilan bog'liq. Shuning uchun iqtisodiyotning turli tarmoqlariga davlat tomonidan ajratiluvchi fond miqdori aholi ish bilan bandligi tarkibida o'ziga xos o'zgarishlarni vujudga keltiradi.

Ish bilan bandlik tarkibini tartibga solishda tarmoq ichidagi va tarmoqlar aro aloqalar bir tekis amalga oshirilishi lozim, lekin ular orasida muvozanatga erishish

⁵³ Manba: O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari.

juda murakkab. Chunki, iqtisodiyotning barcha tarmoqlari birdek rivojlana olmaydi.

2.2.1-jadval. O'zbekiston Respublikasidagi iqtisodiyot tarmoqlarida ishlovchi xodimlarni ish haqi miqdorining o'zgarishi (ming so'm)⁵⁴

| Iqtisodiyot tarmoqlari | Yillar | | | | | 2014 yilda 2010 yilga nisbatan o'zgarishi, % |
|------------------------|--------|-------|-------|-------|-------|--|
| | 2010 | 2011 | 2012 | 2013 | 2014 | |
| Qishloq xo'jaligi | 119,2 | 158,4 | 232,6 | 287,2 | 347,4 | 291,4 |
| Qurilish | 463,7 | 540,2 | 566,2 | 588,8 | 620,5 | 133,8 |
| Transport va aloqa | 251,8 | 333,6 | 343,6 | 405,1 | 455,3 | 180,8 |
| Boshqa tarmoqlar | 168,1 | 207,9 | 273,8 | 338,2 | 388,5 | 231,1 |

Respublikadagi iqtisodiyot tarmoqlarida ish haqi miqdori ish bilan bandlik tarkibi o'zgarishlariga olib keladi (2.2.1-jadval).

Jadvaldan ko'rinib turganidek, iqtisodiyot tarmoqlarida ishlovchi xodimlarning ish haqi miqdori muntazam ortib borgan. Tahlillar o'tgan besh yil davomida qishloq xo'jaligida ishlovchi ishchilarning o'rtacha ish haqi miqdori yuqori sur'atda (291,4 %ga) o'sganligini ko'rsatadi. Biroq, iqtisodiyot tarmoqlari bo'yicha ish haqi miqdorini taqqoslash, uning qishloq xo'jaligi sohasida eng kam (347,4 ming so'm) ekanligini ko'rsatadi. Shundan kelib chiqib qishloq xo'jaligida ish bilan bandlar uchun malaka toifalarini kiritish tavsiya etiladi. Bunday sharoitlarda ishchilarga mehnatning murakkabligi, uning ijodiy ko'rinishini aks ettiruvchi ma'lum malaka toifasi beriladi. Taklif etilayotgan tizim ma'lum ma'noda mehnatga haq to'lashning vaqtbay-mukofatli shakli bilan mos keladi. Bunda har bir xodimga muayyan ish turlarini bajarish bo'yicha me'yoriy topshiriqlar belgilanadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, respublikadagi past darajali mehnat ta'minotiga ega bo'lgan xo'jaliklarda mehnat natijalari erkinligining yo'qligi past

⁵⁴ O'zbekiston Respublikasi statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

daromad olinishiga sabab bo'ldi, bu esa ularga ishchi kuchini takror ishlab chiqarish imkoniyatini bermaydi. Ayni shu sabablarga ko'ra, ushbu xo'jaliklarda ishchi kuchi tanqisligi sun'iy yo'l orqali paydo bo'ladi.

Hozirgi vaqtgacha mavjud bo'lgan ish bilan bandlikning tarmoq tuzilishi jamiyat mehnat potentsialidan foydalanish samaradorligining darajasi pastligini aks ettiradi va u tubdan o'zgartirishga muhtojdir.

Ish bilan bandlikdagi tarkibiy tanazzulning bevosita oqibatlari, aqliy mehnat kishilarining boshqa mamlakatlarga ketib qolishi – ilm-fan sohasidan va ilmiy bilimlar ko'proq talab qilinadigan ishlab chiqarish tarmoqlaridan xodimlarning vositachilik sohaslariga, shuningdek, malakasini yo'qotib, norasmiy faoliyat sohaslariga o'tib ishlashidir. Qayd qilingan ishsizlik darajasidagi tarkibiy orqaga ketish ish bilan bandlik xizmati mijozlari orasida mutaxassislar ulushining yuqori ekanligida namoyon bo'lmoqda. Holbuki, kadrlar potentsialini, ayniqsa, oliy va o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarni shakllantirish uzoq vaqtni hamda mablag'ni talab qiladi.

III-BOB. XIZMAT KO'RSATISH SOHASINING AHOLI BANDLIGINI OSHIRISHDAGI AHAMIYATINI OSHIRISH MASALALARI

3.1. Ish bilan bandlik shakllarining xizmat ko'rsatish sohasi taraqqiyotiga ta'siri

Aholi daromadlarini oshirish, farovonligini ta'minlash va munosib turmush tarzini shakllantirish yangi ish o'rinlarini yaratish, ishsizlik darajasini kamaytirish va aholining muhtoj qatlamini mehnat bozorida qo'llab-quvvatlashni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma'ruzada ta'kidlab o'tganlaridek "Iqtisodiyot va xizmat ko'rsatish sohasining yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi biz uchun eng muhim ustuvor yo'nalish bo'lgan – aholi bandligini ta'minlash, avvalambor, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarini ishga joylashtirish uchun zarur sharoitlar yaratdi"⁵⁵.

So'nggi yillarda ishsizlik masalasi geosiyosiy vaziyatga bevosita bog'liqligini isbotlamoqda. Butun dunyoda ko'zga tashlanayotgan iqtisodiy inqiroz ta'siri har bir mamlakat iqtisodiyotiga, shu o'rinda, milliy mehnat bozori holatiga ham bevosita ta'sir etmoqda. Bunday vaziyatda mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sharoitiga mos holda ish bilan bandlikning moslashuvchan shakllarini joriy etish muhim masalalardan biri hisoblanadi. Ish bilan bandlikning moslashuvchan, egiluvchan shakllarini rivojlantirish ish bilan bandlik muammosini yanada yumshatishga, aholining ijtimoiy-himoyaga muhtoj bo'lgan qatlamini ish o'rinlari bilan ta'minlashga, ularga daromad manbaini yaratishga va malakasini oshirib borish imkonini beradi. Iqtisodiy sub'ektlar uchun esa, ish bilan bandlikning nostandart turlari ish o'rinlarini tashkil etish va ularga xizmat

⁵⁵ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг "Бош мақсадимиз – мавжуд кийинчиликларга қарамасдан, олиб бораётган ислохотларни, иқтисодийетимизда таркибий ўзгаришларни изчил давом эттириш, хусусий мулкчилик, кичик бизнес ва тадбиркорликка янада кенг йўл очиб бериш ҳисобидан олдинга юришди" мавзусидаги маърузаси. – Т. 16 январь 2016 йил. Ўзбекистон миллий ахборот агентлиги <http://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-islom-karimovning-mamlakat-16-01-2016>

ko'rsatish, korxonalar xarajatlarini optimallashtirish imkonini beradi. Yuqorida ta'kidlangan holatlar egiluvchan ish bilan bandlikning rivojlanishi tendensiyalari va muammolari yuzasidan ilmiy izlanishlarni olib borish muhimligidan dalolat beradi.

Bugungi kunda korxonalarining samaradorligini va raqobatbardoshligini oshirish xodimlarning ish vaqtidan unumli foydalanish, ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarini joriy etish va samarali boshqaruv usullarini qo'llashni talab etadi. Dunyodagi yetakchi korxonalar tajribasini o'rganadigan bo'lsak, texnologik jarayonlar, iqtisodiy taraqqiyot hamda ro'y berayotgan keskin o'zgarishlar tufayli korxonaning faoliyat samaradorligi mehnat bozori yangi talablariga hamda xodimlar boshqaruvi va mehnat munosabatlarida ro'y berayotgan o'zgarishlarga tezkor moslashishni talab etadi. Innovatsion o'zgarishlar sharoitida faqatgina ijodkor va moslashuvchan kadrlar ish o'rinlarini tashkil etishning egiluvchan shakllarini yaratishi va zamonaviy boshqaruv tuzilmalariga moslashishi mumkin. Zamonaviy boshqaruv usullari va ish o'rinlarning xususiyatlari xodimlardan nafaqat aniq bir yo'nalishdagi yangi bilim va malakani egallashga, balkim shaxsiy va psixologik jihatdan yangiliklarga tayyor bo'lishni talab etmoqda.

Egiluvchan mehnat munosabatlari ma'lum bir iqtisodiy tendensiyalar va mehnat bozoridagi o'zgarishlar tufayli paydo bo'lgan. Shu sababli, mehnat faoliyatini tashkil etishning hamda mehnat munosabatlarining egiluvchan shakllari korxonalar va ularni boshqarishga bo'lgan ta'sirini, qaysi vazifalarni va muammolarni hal etishini o'rganish muhimdir. Ikkinchi tomondan, mehnatni tashkil etishning ushbu shakllari xodimlar uchun qanday qulayliklar yaratishi, qay darajada ularning xohish va istaklariga mos kelishini tahlil qilish muhimdir. Xodimlar uchun qulay mehnat sharoitlari mavjud bo'lgandagina korxonalar oldiga qo'ygan maqsadlariga to'liq erishish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ish bilan bandlik muammosi ko'p yillardan beri iqtisodchi olimlarning e'tiborida bo'lib kelmoqda. Klassik-iqtisodchi olimlar Dj. Mill, U. Petti, A. Smit, D. Rikardo, Fr. Kene, J.-B. Sey o'z tadqiqotlarida ish bilan bandlikni mehnat resurslariga bo'lgan talabning samaradorligi sifatida belgilagan. Y. Shumpeter, R.

T. Beard⁵⁶, C. Beatty⁵⁷, M. Ebisui⁵⁸ o'z tadqiqot natijalarida ish bilan bandlik hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi aloqalarning mohiyatini aks ettirgan.

MDH davlatlarida esa bevosita mehnat bozori samaradorligi masalalari yuzasidan: Q.X. Abduraxmonov⁵⁹, B.C. Bulanov, N.A.Volgin⁶⁰, V. Gimpelson⁶¹, A.E.Kotlyar⁶², Maslova I.S.⁶³, Odegov Yu.G.⁶⁴ Ye. Romanyuk⁶⁵ va boshqalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Ushbu olimlar asosiy e'tiborni ish bilan bandlikdarajasini oshirishga ta'sir etuvchi omillar va mehnat bozori samaradorligini ta'minlashning iqtisodiy salohiyatini o'rganishga qaratgan. Tadqiqotlarda mehnat resurslari sifati darajasi ish bilan bandlik darajasi va aholi farovonligiga bevosita ta'sir etuvchi omil sifatida o'rganilgan. Shu bilan birga, dunyo hamjamiyatida innovatsion texnologiyalarning rivojlanishi noan'anaviy ish bilan bandlikning egiluvchan shakllariga bo'lgan e'tiborni tobora oshirmoqda. Ish bilan bandlikning egiluvchan shakllari rivojlanishining barqaror iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni⁶⁶, ish bilan bandlikning noan'anaviy shakllarining rivojlanishi, ish bilan bandlikning

⁵⁶ Beard, T. Capital investment and employment in the information sector [Text] / T. Beard, G. Ford, H. Kim // Telecommunications Policy. – 2014. – № 38. – P. 371-382.

³ Beatty, C. A Theory of Employment, Unemployment and Sickness [Text] / C. Beatty, S. Fothergilla, R. Macmillanb // Regional Studies. – 2000. – № 34, (7). – P. 34-52.

⁴ Ebisui, M. Non-standard workers: good practices of social dialogue and collective bargaining [Text] / M. Ebisui. – ILO, Industrial and Employment Relations Department, 2012. – 31 p.

⁵ Национальная экономика: теоретические аспекты и современные тенденции [Текст]: монография / К.Х. Абдурахманов [и др.]. – Т.: Филиал РЭУ им. Г.В. Плеханова, 2013. – 464 с.

⁶ Буланов В.С., Волгин Н.А., Бобков В.Н., Карташов С.А. и др. Рынок труда: Учебник / Под ред. В.С. Буланова и Н.А. Волгина. - 3-е изд., перераб. и доп. Экзамен: - М, 2010. – 479 с.

⁷ Гимпельсон, В.Е. Российская модель рынка труда: испытание кризисом [Текст] / В.Е. Гимпельсон, Р.И. Капелюшников // Журнал новой экономической ассоциации. – 2015. – № 2. – С. 249-254.

⁸ Котляр, А. Э. О понятии рынка труда // Вопросы экономики. – 1998. – № 1. – С. 33–41.

⁹ Маслова И.Г. Эволюция системы и механизмов занятости (1970-2010 гг.). – Институт Экономики, 2012. – 190 с.

¹⁰ Оdegov Ю., Руденко Г. Внутренний рынок труда в системе социально трудовых отношений // Вопросы экономики. – 2004. – N 3. – С. 105-114.

¹¹ Романюк, Е.В. Инфраструктурное обеспечение государственного регулирования занятости населения: сущность и элементы [Текст] / Е.В. Романюк // Российское предпринимательство. – 2015. – Т. 16. – № 7. – С. 1061-1068.

⁶⁶ Boeri, T. Institutional reforms and dualism in European labor markets - Handbook of Labor Economics, vol. 4B. 2011.

egiluvchan shakllarini milliy mehnat bozoriga moslashtirish va ularning iqtisodiyot va iqtisodiy sub'ektlar faoliyatidagi o'rni tadqiqot ob'ekti sifatida o'rganib kelinmoqda⁶⁷.

Ta'kidlash lozimki, yuqorida keltirilgan tadqiqotlar asosan egiluvchan ish bilan bandlikning shakllanishi va faoliyat olib borishiga qaratilgan, ammo ilmiy adabiyotlarda ish bilan bandlikning rivojlanishi yo'nalishlari va iqtisodiyot taraqqiyotdagi o'rni to'liq o'rganilmagan.

Mehnat resurslari va tuzilmaviy o'zgarishlar texnologik innovatsiyalarning rivojlanishi va iqtisodiyotdagi tuzilmaviy o'zgarishlarga moslashib borishi zarur. Rivojlanayotgan davlatlarda mehnat bozoridagi vaziyatga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mavjud ishsizlikning asosiy sababi bu ishsizlarning malakasi va mavjud ish o'rinlarining malaka talablariga mos kelmasligidadir. Ushbu holat ishsizlardan moslashuvchanlikni va o'zgarishlarga moyil bo'lishni talab etadi.


Dunyoda ro'y berayotgan globallashuv jarayoni tufayli dunyo bo'yicha yagona bozor shakllanayotganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Milliy korxonalarining faoliyatiga bevosita boshqa davlatdagi korxonaning ta'siri, mahsulot bozorlari ko'lami kengayib borishi, ishlab chiqarishning zamonaviy texnologiyalari rivojlanishi, tovarlar hayotiy davri qisqarishi ishlab chiqaruvchilarga bo'lgan tazyiqni yanada oshirmoqda. Ishlab chiqarishning zamonaviy usullari hamda innovatsion texnologiyalar qisqa va uzoq muddat davrda ortiqcha bandlikni paydo bo'lishiga olib kelmoqda. Korxonalarda ishlab chiqarishni va mehnatni tashkil etish usullari hamda ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologiyalarning o'zgarishi korxonalarda kadrlar siyosati va xodimlar sonini islohotlarini talab etadi⁶⁸. Yuqori raqobatchilik sharoitida bozorda egallab turgan mavqeyini saqlab qolish, shu bilan birga, ishlab chiqarishni bir maromda olib borish, korxonaning moslashuvchanligini ta'minlash ishlab chiqarish xarajatlarini hamda ishchi kuchi sonini kamaytirishni talab etadi. Ish

⁶⁷ Гимпельсон В.Е. , Капелюшников Р.И. Российская модель рынка труда: испытание кризисом. Журнал новой экономической ассоциации. 2015. № 2. P. 249-254.

⁶⁸ Sanders K., Frenkel S. HR-line management relations: characteristics and effects. The International Journal of Human Resource Management, 1466-4399, Volume 22, Issue 8, 2011. - P. 1611 - 1617.

bilan bandlikning egiluvchan shakllarining amaliyotda qo‘llanilishi korxonalar faoliyatida tanglik mavjud bo‘lgan davrlarda xodimlardan voz kechmasdan ularning mehnatidan samarali foydalanish imkoniyatini beradi.

O‘zbekiston Respublikasida hamda MDH mamlakatlarida egiluvchan ish bilan bandlikni rivojlanishi holatini tahlil qilishda, avvalambor mehnat bozori samaradorligini o‘rganish maqsadga muvofiqdir. Mehnat bozoridagi holatni o‘z o‘rnida mamlakatdagi demografik vaziyat belgilab beradi. 2015 yil boshida MDH mamlakatlari aholi soni 282 mln. kishini tashkil etib, bu esa dunyo aholisining 4 %ni tashkil etmoqda (3.1.1-rasm).



3.1.1-rasm. MDH davlatlari (umumiy aholi sonidagi ulushi, %da)⁶⁹

Manba: [15] ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Aholi soniga nisbatan MDH mamlakatlari ichida Rossiya va Ukrainadan so‘ng O‘zbekiston uchinchi o‘rinni egallaydi. Armaniston eng kam sonli aholiga ega. So‘nggi yillarda Belarus, Moldova va Ukrainadan tashqari barcha MDH davlatlarida aholi sonining o‘sishi kuzatilgan.

⁶⁹ Население и социальные индикаторы стран СНГ и отдельных стран мира 2011-2014. Межгосударственный статистический комитет СНГ/. – М.: 2015. – С. 7.

3.1.1-jadval

Umumiy aholi soni, yil boshiga, mln. kishi

| | 2012 | 2013 | 2014 | 2015 |
|--------------|----------|----------|----------|----------|
| <i>1</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> |
| Арманистон | 3.0 | 3.0 | 3.0 | 3.0 |
| Беларусь | 9.5 | 9.5 | 9.5 | 9,5 |
| Қозоғистон | 16.7 | 16.9 | 17.2 | 17.4 |
| Қирғизистон | 5.6 | 5.7 | 5,8 | 5,9 |
| Молдова | 3.6 | 3.6 | 3,6 | 3,6 |
| Озарбайжон | 9.2 | 9.4 | 9.5 | 9.6 |
| Россия | 143.1 | 143.3 | 143.7 | 146.3 |
| Тожикистон | 7.8 | 8.0 | 8.2 | 8.4 |
| Туркменистон | 5.1 | 5.2 | 5.3 | 5.9 |
| Ўзбекистон | 29.6 | 30.0 | 30.5 | 31.5 |
| Украина | 45.5 | 45.4 | 45.2 | 42.8 |
| Жами МДХ | 281 | 282 | 282 | 282 |


Manba: [15] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

MDH mamlakatlari miqyosida 2011-2014 yillar mobaynida umumiy aholi soni o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa ham, iqtisodiy faol aholi soni 0.5%ga qisqargan (jadval 1). Shu bilan birga ishsizlikning o'rtacha darajasi MDH mamlakatlari bo'yicha 6,2 %, va eng yuqori ko'rsatkich 2011 yilda 6,7 %ni va eng quyi ko'rsatkich 2014 yilda 6,1 %ni tashkil etdi⁷⁰. 2013 yilga qadar MDH davlatlari bo'yicha ishsizlik darajasi pasayib kelgan, faqatgina 2014 yilda o'sish kuzatilgan MDH mamlakatlari o'rtasida ishsizlikning eng yuqori darajasi Armaniston – 18,1 %ni va eng quyi darajasi Moldovada 4 %ni tashkil etgan. Ish bilan bandlik darajasi MDH davlatlari bo'yicha 2012-2014 yillar mobaynida 0,2 %ga pasaygan. Ushbu ko'rsatkich eng yuqori darajada Qozog'istonda va eng quyi darajada Tojikistonda – 43,2 %ni tashkil etgan (3.1.2- rasm).


Umuman olganda MDH davlatlari bo'yicha ish bilan bandlik darajasi 2015 yil 1 yanvar holatiga ko'ra 65,2 %ni tashkil etgan, ushbu ko'rsatkich Yevropa mamlakatlarida 64,9 %ni tashkil etgan⁷¹.

⁷⁰ МДХ интернет портали – <http://www.e-cis.info>.

⁷¹ Мониторинг состояния национальных рынков труда стран Содружества Независимых Государств 2011-2014. – М.: Межгосударственный статистический комитет СНГ, 2015. – 45 с.



МДХ мамлакатлари бўйича ишсизлик даражаси




МДХ мамлакатлари бўйича иш билан бандлик даражаси

3.1.2-rasm. MDH davlatlari bo'yicha ishsizlik va ish bilan bandlik darajasi

Manba: [16] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

MDH mamlakatlari bo'yicha ish bilan band aholining asosiy qismi xizmat ko'rsatish sohasida faoliyat yuritadi. Xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandlarning ulushi 2000 yilda 53 % dan 2014 yilga kelib 61 % ga oshgan bo'lishiga qaramay Yevropa hamjamiyati (73 %) hamda AQSh (81 %) ga nisbatan ancha past. Qishloq xo'jaligi, ovchilik va o'rmon xo'jaligi hamda baliqchilik sohasida 2000 yildagi 20 % ga nisbatan 2014 yilda 15 % ga pasayishiga qaramay rivojlangan davlatlardagi ko'rsatkichlarga nisbatan yuqori (3.1.3-rasm).



3.1.3-rasm. Ish bilan bandlarning asosiy faoliyat sohalari bo'yicha taqsimoti, 2014 yil, %⁷²

** Tojikiston – 2012 yil;

Manba: [18] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Rivojlangan malakatlar tajribasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, iqtisodiyot taraqqiyoti bilan aholining xizmat ko'rsatish sohasida ish bilan bandligi darajasi oshib boradi. Aholining ish bilan bandligida xizmat ko'rsatish ulushining ortib borishi o'z-o'zidan ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarining qo'llanilishiga va takomillashib borishiga olib keladi⁷³.

Mehnat bozorida ro'y berayotgan tarkibiy o'zgarishlar bilan birga MDH mamlakatlarida ish bilan bandlikning egiluvchan shakllariga ham e'tibor oshib bormoqda. Ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarining bir turi sifatida aholining mustaqil ish bilan bandligi ko'rsatkichi hisoblanadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra MDH mamlakatlarida 2008-2014 yillar mobaynida Armaniston, Moldova, Ukraina hamda O'zbekistonda aholini mustaqil o'z-o'zini ish bilan ta'minlash ko'rsatkichi oshish tendensiyasiga ega. Tahlil etilgan yillar mobaynida mustaqil ish bilan bandlik ko'rsatkichi 1.2% ga kamaygan (4-rasm).



3.1.4-rasm. Ish bilan band aholi sonida mustaqil bandlarning ulushi.

Manba: [16,17] ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

⁷² Рынок труда в странах Содружества в 2013 году / Статистика СНГ. Статистический бюллетень, 2014 № 10 (541). С. 27;

⁷³ Jahn E., Riphahn R.T., Schnabel C. Flexible Forms of Employment: Boon and Bane – Nuremberg: LASER Discussion Papers, 2012. - 11 p.

Ushbu ma'lumotlarga ko'ra Armaniston, Moldova, O'zbekiston, Qirg'iziston, Qozog'istonda jami ish bilan band aholi sonida mustaqil ish bilan bandlik ayrim rivojlangan mamlakatlarga nisbatan yuqori hisoblanadi⁷⁴.

Ish bilan bandlikning egiluvchanligi yana bir ko'rsatkichlaridan biri bu kasanachilik – uy mehnati. MDH mamlakatlari misolida qaraydigan bo'lsak tadqiqot yillari davomida MDH davlatlari bo'yicha ushbu ko'rsatkich o'sish tendensiyasiga ega bo'lib, ammo dunyoning boshqa rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlariga nisbatan ushbu ko'rsatkich nisbatan past darajada. 2015 yil 1 yanvar holatiga ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faol aholi tarkibida atigi 7,4%ni tashkil etgan.

Kasanachilikning afzalligi aholiga, ayniqsa uzoq hududlarda va qishloqlarda istiqomat qiluvchi aholiga qo'shimcha daromadga ega bo'lish imkoniyatini yaratishi, moslashuvchanligi, hamda aholiga keng hududda amal qilish imkonini berishidadir⁷⁵. Mamlakatimizda MDH davlatlari o'rtasida kasanachilik – uy mehnati, oilaviy biznesga yuqori e'tibor qaratilishi o'z samarasini berib kelmoqda.

Rivojlangan davlatlar tarixiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 1970 yillar boshidan boshlab ish bilan bandlikning egiluvchan shakllari qo'llanilib kelgan. Inqiroz davridan so'ng korxonalar uchun o'z mavqeini saqlab qolish, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish, yangi texnologiyalarni qo'llash, yangi marketing siyosatini amalga oshirish, ishlab chiqarishni tashkil etishdagi islohotlarni joriy etish uchun mehnat munosabatlarida yangi takomillashgan usullarni qo'llash zarur bo'lgan. Birgina Yevropa Ittifoqi davlatlarida 1975 yildan 1991 yilgacha egiluvchan mehnat munosabatlarining qo'llanilishi 3 % dan 26 %gacha oshgan. 1991yilga kelib Gollandiya, Angliya, Daniyada 5 ta korxonadan birida qisqartirilgan ish soati qo'llanilgan⁷⁶.

⁷⁴ World Bank Open Data. Self-employed, total (% of total employed) World Development Indicators - <http://data.worldbank.org/indicator/SL.EMP.SELF.ZS/countries/1W?display=default>.

⁷⁵ Хомитов К.З. Касаначилик меҳнатининг қишлоқ аҳолисини иш билан таъминлашдаги ўрни //Bozor, Pul va Kredit. - Тошкент: 2009. - №6. – Б. 56-58.

⁷⁶ Omsted, B. Job Sharing: on emerging work-style – International Labour Review, 118, 3, s.283-297.

Keskin raqobat sharoiti korxonalar uchun bozordagi ulushini saqlab qolish murakkab vazifa sifatida namoyon bo'lgan. Bunday sharoitda korxonalar tomonidan dastlab qisqartirilgan ish soati qo'llanilgan. Qisqartirilgan ish vaqti mehnatni tashkil etishning egiluvchan shakllaridan biri hisoblanadi. Korxonalar keskin iqtisodiy vaziyatlarda xodimlarni ishdan bo'shatishdan voz kechib, ish vaqti davomiyligini qisqartirishlari mumkin. Ish vaqti davomiyligini qisqartirish o'z-o'zidan maoshlarni ham qisqarishiga olib keladi, ammo ayrim xodimlar ishsiz bo'lib qolishidan kelib chiqadigan salbiy oqibatlariga qaraganda afzal hisoblanadi. Bunga Volkswagen kompaniyasining tajribasini misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. 1994 yilda kompaniyaning avtomobil sotuvlari xajmi qisqarganligi tufayli korxonaga yomon iqtisodiy sharoitga duch kelgan. Ushbu sharoitda korxonaga odatiy tarzda korxonaga xodimlarini ishdan bo'shatmasdan, kasaba uyushmalari bilan kelishgan holda, haftalik ish vaqtini 35 soatdan 28,8 soatga qisqartirgan. Ushbu cheklovlar 35 mingga yaqin xodimlarga nisbatan qo'llanilgan, ular tomonidan inqiroz davrida korxonaga faoliyatini saqlab qolish uchun yetarli ij hajmi va ish vaqti bajarilgan. O'z navbatida korxonada zarur mutaxassislar saqlab qolingan. Kompaniya tomonidan qo'llanilgan ushbu tajriba inqirozni yenggan birinchi samarali usul sifatida tan olingan.

Mehnatni tashkil etishdagi yana bir o'zgarish telebandlikni qo'llanilish bo'lgan (ish o'rnidan tashqaridagi faoliyat). Bu kabi bandlik turining qo'llanilishiga xodimlarning ish o'rinlari bilan bevosita aloqa qilish imkoniyatini beruvchi, mehnat faoliyati natijalarini qisqa muddatlarda korxonaga yetkazish imkonini beruvchi axborot kommunikatsion texnologiyalarning rivojlanishi sabab bo'ldi. Telebandlik turlari bo'lib, uydagi telebandlik (xodimning xonadoni ish joyi hisoblanadi), mobil telebandlik (ish vaqtining asosiy qismi ish joyidan tashqarida – ish yuzasidan safarlar, xaridorlar bilan uchrashuv), qisman telebandlik (mehnat faoliyati ma'lum qismi uyda, ma'lum qismi korxonaga hududida bajariladi). Telebandlik xodimlar uchun qulaylik yaratishi Yevropa mamlakatlarida o'tkazilgan so'rovlardan ham ko'rishimiz mumkin. So'rovnoma natijalariga ko'ra ishtirokchilarning 72 %i telebandlik oila hamda xizmat vazifalariga qulay vaqt

ajratilishini, 50 %i vaqt tejay olishini, 3,6%i sog'liq bilan bog'liq muammolarni hal qila olishlarini, 1,1 %i ta'lim va malakani oshirish imkoni bo'lishini, 0,7 %i ish bilan band bo'lishini ta'kidlashgan.

Ish o'rinlari bilan almashish mehnatni tashkil etishning egiluvchan shakllaridan biri sifatida 1980 yillarda namoyon bo'lgan. Ish o'rinlarini almashish imkoniyati asosan boshqaruv xodimlariga qulaylik tug'diradi, chunki xizmat vazifasining ma'lum bir qismini bajargandan so'ng oilaviy masalalarga, ta'lim olishga, sog'liqni tiklashga qo'shimcha vaqt ajratish imkoniyati paydo bo'ladi⁷⁷.

Korxonaning samaradorligi, birinchi navbatda, korxonada boshqaruvchilari tomonidan ishlab chiqarishni, mehnat munosabatlarini tashkil etishga bog'liq. Ushbu tadqiqotimizda keltirilgan ish bilan bandlikning egiluvchan shakllaridan foydalanishning ijobiy natijalari bilan birga salbiy natijalari ham mavjud. Iqtisodiy vaziyatni oldindan ko'ra bilish, mehnat munosabatlarini to'g'ri tashkil etish orqali korxonada yuz tutishi mumkin bo'lgan murakkab vaziyatlarni oldini olish mumkin. Ushbu masala birinchi navbatda mutaxassis boshqaruvchi kadrlarga bog'liqdir. Yuqoridagilardan xulosa qilib quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- aholining ish bilan bandligida xizmat ko'rsatish ulushining ortib borishi o'z-o'zidan ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarining qo'llanilishiga va takomillashib borishiga olib keladi;
- ushbu yo'nalishda korxonada imkoniyatidan kelib chiqqan holda, kelajakda kutilishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni ko'ra biladigan, ish boshqaruvchi – menejer kadrlarni tayyorlash samaradorligini oshirish lozim;
- ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarining amaliyotda qo'llanilishi korxonalar o'z faoliyatida yuz tutishi mumkin bo'lgan murakkab vaziyatlarda mutaxassis xodimlarni ishsiz bo'lib qolishlarini oldini olish imkonini beradi;
- ish bilan bandlikning egiluvchan shakllarining qo'llanilishi dunyo iqtisodiyotida ro'y berayotgan keskin vaziyatlarda mehnat bozorida o'zgarishlarga tezkor javob berish imkonini beradi;

⁷⁷ Jacques W. Job Sharing across Generations and Lump of Labour: Evaluating the impact of part time early retirement on youth employment //Work and occupations. – 2015.

- egiluvchan ish bilan bandlik shakllari ish bilan bandlik muammosini yanada yumshatishga, aholining ijtimoiy-himoyaga muhtoj qatlamini ish o‘rinlari bilan ta‘minlashga, ularga daromad manbaini yaratishga va malakasini oshirish imkonini beradi.

3.2. Xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirish asosida aholi bandligini oshirish imkoniyatlari

Turmush farovonligini oshirish har qanday iqtisodiy tizimning barcha muammolari markazida turadi va ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot sohasida barcha urinishlar pirovard natijada shu bosh muammoni yechishga qaratilgan. Bugungi kunda aholi iste‘moli tarkibida xizmatlar ulushining tobora ortib borayotganligini kishilik jamiyati taraqqiyotidagi katta ijobiy o‘zgarish deb baholash mumkin. Xizmatlar sohasining jadal rivojlanishi aholi iste‘molida tub tarkibiy o‘zgarishlar sodir bo‘layotganligidan, aholi turmush darajasi yuksalib borayotganligidan dalolat beradi. Buning yana bir real isbotini O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti 2014 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturlarning eng muhim ustuvor yo‘nalishlarga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma‘ruzasida ham ko‘rish mumkin. Unda mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy hayotida ro‘y berayotgan jarayonlar har tomonlama tahlil etilibgina qolmasdan yechimini kutayotgan eng dolzarb masalalar hamda iqtisodiy taraqqiyot yo‘nalishlari ham belgilab berildi. Shuningdek, O‘zbekiston iqtisodiyoti yangilanish, barqaror taraqqiyot va har tomonlama rivojlanish yo‘lidan ishonch bilan odimlab borayotganligi, bularning barchasi xalqimiz uchun farovon turmush sharoitini yaratishga qaratilganligi aniq va ravshan qilib ta‘kidlandi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar negizida iqtisodiyotni erkinlashtirish, mamlakatni modernizatsiyalash, makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash evaziga uzluksiz iqtisodiy o‘sishga erishishdek dolzarb vazifa qo‘yilgan. Bu vazifani bajarish iqtisodiyot tarmoqlari rivojlanishi, mamlakat

aholisi uchun munosib turmush tarzini shakllantirishga qaratilgan chuqur tadqiqotlar olib borilishini talab etadi.

Ushbu muhim vazifani amalga oshirishda, ya'ni mamlakat aholisi uchun munosib turmush darajasi va sifatini shakllantirishda, xizmat ko'rsatish sohasining alohida o'rni bor.

Xizmat ko'rsatish sohasi muhim iqtisodiy sohalardan biri bo'lib, u boshqa barcha iqtisodiy sohalar singari, jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichida o'ziga xos tashqi iqtisodiy hamda ijtimoiy omillarning bevosita ta'siri ostida paydo bo'ldi va asta-sekin rivojlandi. Tabiiyki, ushbu soha katta tarixiy davr mobaynida bir necha bosqichlarni bosib o'tdi va har bir tarixiy davrning mohiyatiga mos tarzda uning shakli va tarkibi o'zgardi, mazmuni esa kengayib, tobora boyib bordi.

Hozirgi davrda "xizmat" tushunchasi bilan inson hayoti, uning turmush darajasi va farovonligi, bugungi tirikchiligi, kelajagi va istiqbollari har tomonlama va chambarchas bog'liq. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasi jamiyatning ijtimoiy va iqtisodiy hayotida shu qadar mustahkam o'rinni egallab oldiki, ushbu sohasiz aholi bandligi, daromadlari, turmush darajasi, yalpi ichki mahsulot ishlab chiqarishni rivojlantirish, iqtisodiy o'sishga erishish, zamonaviy yangi iqtisodiyotni shakllantirish va jamiyat ravnaqining boshqa muhim jihatlarini tasavvur qilib bo'lmaydi. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida insonning kundalik iqtisodiy faoliyati, uning iste'moli, turmush sifati, mazmunli hayot kechirishi ko'p jihatdan xizmat ko'rsatish sohasi bilan bog'liq. Aynan xizmat ko'rsatish sohasining yalpi ichki mahsulotdagi ulushiga qarab mamlakat aholisining turmush darajasi to'g'risida xulosa chiqarish, mamlakatning toifasini, uning rivojlanganlik darajasini (rivojlangan, rivojlanayotgan, qoloq), taraqqiyotning qaysi bosqichiga (industrial, postindustrial) o'tganligini aniqlash mumkin.

Respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini yanada rivojlantirish orqali uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini keskin oshirish, aholini ish bilan ta'minlash, kishilarning real daromadlarini ko'paytirish, aholi barcha qatlamlarining turmush farovonligini yaxshilash imkonini bermoqda.

Xizmatlarning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi yildan-yilga o'sib bormoqda. 2006 yilda ushbu ko'rsatkich 39,5 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2015 yilga kelib u 54,5 %ga yetdi⁷⁸.

Ammo, postindustrial jamiyatda xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning asosini tashkil etib, butun mamlakatning muvaffaqiyatli rivojlanishiga bevosita o'z ta'sirini ko'rsatadi. "Xizmatlar sohasining rivojlanishi, ko'rsatilayotgan xizmatlar hajmi va sifati bo'yicha biz rivojlangan mamlakatlarda hamon jiddiy orqada qolmoqdamiz"⁷⁹, rivojlangan mamlakatlarda sohaning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 70-80 %ni tashkil etadi⁸⁰.

Bugungi kunda mamlakatimizda xizmat ko'rsatish korxonalarida innovatsion jarayonlar sustroq rivojlanmoqda, aholining servis xizmatlariga bo'lgan talablari yetarli darajada qondirilmayapti. Bu esa, o'z navbatida, xizmat ko'rsatish sohasining shakllanishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, uning aholi turmush darajasiga ta'sirini ma'lum darajada pasaytirmoqda. Fikrimizcha, bunday holatning mavjudligi yuqorida qayd etilgan muammolarni hal etishning, xususan, xizmatlar sohasini jadal sur'atlar bilan rivojlantirish va ular sifatini yuqori darajalarga ko'tarish muhimdir.

Hammamizga ma'lumki aholi turmush darajasiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri umr ko'rish davomiyligidir. Biz ham tadqiqotlarimiz davomida aholi umri uzoqligining xizmatlar sohasi rivojlanish darajasidagi bog'liqligini o'rganib chiqdik (1-jadval).

⁷⁸ Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И. Каримовнинг 2015 йилда мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантиришнинг якунлари ва 2016 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишлаган Вазирлар Маҳкамаси мажлисидаги маърузаси // Халқ сўзи, 16 январь 2016 йил.

⁷⁹ Котлер Ф. Маркетинг-менеджмент. Экспресс-курс. 2-е изд./пер. с англ.; под ред. С.Г. Божук. СПб.: Питер, 2005. С. 301

⁸⁰ Составлено по: Николайчук В.Е. Маркетинг и менеджмент услуг. Деловой сервис. -СПб.: Питер, 2005, с.608.

3.2.1-jadval

**Aholi umri uzoqligining xizmatlar sohasi rivojlanish darajasidagi
bog‘liqligi 2015 yil⁸¹**

| Mamlakatlar | O‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi, (yosh) | Sanoatning YaIMda ulushi, % | Qishloq xo‘jalik sohasining YaIMda ulushi, % | Xizmatlar ko‘rsatish sohasining YaIMda ulushi, % |
|------------------------------|--|-----------------------------|--|--|
| <i>1</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> |
| O‘zbekiston | 77,8 | 24,0 | 17,0 | 54,5 |
| AQSh | 78 | 18,9 | 2,1 | 80 |
| Yaponiya | 83 | 32,0 | 1,0 | 71 |
| Fransiya | 81 | 26,0 | 3,0 | 71 |
| Germaniya | 80 | 26,9 | 1,1 | 72 |
| Rossiya Federatsiyasi | 69 | 16,9 | 14,6 | 69,5 |

Yuqorida keltirilgan jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, O‘zbekiston aholisining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligi rivojlangan davlatlar aholisining o‘rtacha umr ko‘rish davomiyligiga yaqinroq kelsada, xizmat ko‘rsatish sohasining mamlakat YaIMdagi ulushi sezilarli darajada past.

Xizmat ko‘rsatish sohasi aholining sog‘lig‘iga, kayfiyatiga, mehnatga munosabatiga, ishchi-hodimlarning mehnat unumdorligiga, o‘z hayotidan rozilik darajasi va xursandligiga, umuman ishlab chiqarish kuchlarining holati va taraqqiyotiga bevosita va sezilarli ta’sir ko‘rsatadi.

Xizmat ko‘rsatish sohasining tabiati, uning aholi turmush darajasi va sifatiga ta’siri yo‘nalishlari, bir necha yo‘nalishlarda namoyon bo‘ladi: aholining xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini va talablarini qondirish, aholining iste’mol xarajatlarini tejash, aholi bandligini oshirish va daromadlarini ko‘paytirish, qolaversa eng asosiylaridan biri aholining bo‘sh vaqtini ko‘paytirish va undan samarali foydalanish uchun sharoit yaratishdir.

Inson o‘z umrini turli-tuman iqtisodiy va noiqtisodiy faoliyat uchun sarflaydi. Xizmat ko‘rsatish sohasining aholi turmush darajasi va sifatiga ta’sirini o‘rganish, eng muhimi, kelajakda uning ta’sirini kuchaytirishga oid ilmiy

⁸¹ Davlat statistika qўmitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

asoslangan takliflar ishlab chiqish maqsadida bu faoliyat turlaridan quyidagi eng muhimlarini ajratib olishni maqsadga muvofiq deb topdik:

-ijtimoiy ishda band bo'lish;

-fiziologik ehtiyojlarni qondirish (uxlash, ovqatlanish, kiyinish);

-uy-ro'zg'or tashvishlari (ovqat tayyorlash, tozalik, bola tarbiyasi, obodonlashtirish va boshqalar);

-ta'lim olish.

Qolgan vaqt esa insonning bo'sh vaqti hisoblanadi. Undan qanday foydalanish, nimalarga sarflashni har bir individning o'zi hal qiladi. Lekin insonning bo'sh vaqti qanday va nimalarga sarflanishi jamiyat uchun ham befarq emas. Har tomonlama yetuk, bilimli, barcha ijobiy fazilatlarni o'zida shakllantirgan, jahon bozorida mamlakat milliy iqtisodiyoti mavqeini mustahkamlashga qodir bo'lgan insonni tarbiyalash aynan bo'sh vaqtni oqilona rejalashtirish va undan unumli foydalanishni taqozo etadi.

Hozirgi kunda O'zbekistonda erkaklarning o'rtacha yoshi 77,4 yilni, ayollarniki esa, 78,2 yilni tashkil etadi[4]. O'rtacha yosh darajasida umr ko'rgan va butun umri ijtimoiy ishda band bo'lgan oliy ma'lumotli kishilar uchun o'z umrining qanday taqsimlanganligini hisoblab ko'rishga urinib ko'rdik. Bizning hisob kitoblarimiz quyidagi natijalarni berdi (3.2.2-jadval).

3.2.2-jadval

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan kishilar umrining taqsimoti

| t/r | Jinsi | Umr ko'rish uzoqligi (yil) | Jumladan | | | | | | | | | |
|----------|----------|----------------------------|-----------------------------------|----------|---------------------|----------|---|----------|--------------|-----------|------------|-----------|
| | | | Fiziologik ehtiyojlarni qondirish | | Ijtimoiy ishda band | | Uy-ro'zg'or tashvishlari va bolalarni tarbiyalash | | Ta'lim olish | | Bo'sh vaqt | |
| | | | yil | % | yil | % | yil | % | yil | % | yil | % |
| 1 | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 | 11 | 12 | 13 |
| 1 | Erkak | 77,4 | 37,2 | 48,1 | 10,6 | 13,7 | 8,2 | 10,6 | 2,4 | 3,1 | 19 | 24,5 |
| 2 | Ayol | 78,2 | 40,7 | 53,4 | 9,5 | 12,1 | 15,5 | 19,8 | 1,4 | 1,8 | 11,1 | 14,6 |

Manba: muallif ilmiy tadqiqotlari asosida hisoblangan.

Yigit-qizlarning bir qismi balog'at yoshiga yetgandan keyin, bo'sh vaqtlarining bir qismini ixtiyoriy ravishda kasbiy ta'lim olishga sarflaydilar. Bu

odatda 4-6 yil davom etishi va unga inson o'z umrining 1-2,4 yilini sarflashi mumkin. Bunday yoshlarda ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lish muddati kasbiy ta'lim olish yillari hisobidan ma'lum darajada qisqarsada, lekin ularning malakasi va yuqori mehnat unumdorligi o'qish jarayonida sarflangan vaqtning ish faoliyatiga salbiy ta'sirini ortig'i bilan qoplaydi.

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rinib turibdiki, inson umrining talaygina qismi bo'sh vaqt hisobiga to'g'ri keladi. Undan jamiyat taraqqiyoti yo'lida unumli foydalanishni tashkil etishda xizmat ko'rsatish tizimi tarmoqlari katta rol o'ynaydi.

Umumiy ovqatlanish ijtimoiy mehnatni tejevchi omil hisoblanadi. Aholi vaqtining talaygina qismi uy-ro'zg'or tashvishlari, ya'ni ovqat tayyorlashga sarflanar ekan. Tadqiqotlarimizga aniqlik kiritish maqsadida aholining umumiy ovqatlanish korxonalaridan foydalanish holati, korxonalarining savdo aylanmasi holatiga alohida to'xtalmoqchimiz. Statistik ma'lumotlarga ko'ra respublikada umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi hajmi, 2006 yilda 162,1 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2014 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 1017,3mlrd so'mga yetdi. Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi, umumiy chakana savdo aylanmasidagi ulushi 2006 yilda 4,3 %ni, 2014 yilga kelib ushbu ko'rsatkich 6,7 %ni tashkil etdi (3.2.3 – jadval).

3.2.3-jadval

O'zbekiston Respublikasida chakana savdo aylanmasi 2006-2014 yy⁸²

| Ko'rsatkichlar | Yillar | | | | | | 2006-2014 yilga nisbatan % |
|---|----------|----------|----------|----------|----------|----------|----------------------------|
| | 2006 | 2007 | 2008 | 2009 | 2010 | 2014 | |
| <i>1</i> | <i>2</i> | <i>3</i> | <i>4</i> | <i>5</i> | <i>6</i> | <i>7</i> | <i>8</i> |
| 1. Chakana savdo aylanmasi, mlrd.s Jumladan: | 7453,8 | 9574,6 | 12282,3 | 16874,6 | 21873,8 | 28539,0 | 382,9 |
| Oziq –ovqatlar | 3755,8 | 4903,7 | 6543,6 | 7968,2 | 10583,7 | 14338,5 | 381,8 |
| 2.Umumiy ovqatla-nish korxonalari | 162,1 | 231,9 | 309,0 | 403,2 | 560,9 | 1017,3 | 627,6 |

⁸² Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилган.

| | | | | | | | |
|---|-----|-----|-----|-----|-----|-----|------|
| savdo aylanmasi -hajmi, mlrd.s. | | | | | | | |
| -umumiy chakana savdo aylanmasi-dagi ulushi, % | 4,3 | 4,7 | 4,7 | 5,1 | 5,3 | 5,7 | +1,4 |

Ushbu ko'rsatkich Rossiya Federatsiyasining umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasida, umumiy chakana savdo aylanmasi ulushi 2014 yilda 10,1%ni tashkil etgan. Rivojlangan davlatlarda bundan ham yuqoriligi tabiiydir.

Aholi ehtiyojlarini qondirish zarurati xizmatlar sohasiga ham to'la daxldor. Turli-tuman xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlar – aholi umumiy ehtiyojlarining ajralmas tarkibiy qismi va ularni imkoniyat boricha to'laroq qondirish ijtimoiy ishlab chiqarishning asosiy funksiyasi hisoblanadi.

Demak, xizmat turlarining rivojlanishi insonning o'zini ham takomillashtiradi. Ya'ni uni o'ziga-o'zi qiladigan xizmatlardan ozod qilib, mehnatini samaradorligini yuksaltirib, turmush darajani oshirishga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot ishi sohasiga oid nazariy va amaliy adabiyotlarni o'rganish asosida olib borilgan izlanishlar quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi.

1. Aholining ish bilan bandligi sohasi tarkibiga mehnat bozoridan tashqari aholining o'zini o'zi ish bilan ta'minlashi, ularning uy xo'jaliklari tarkibidagi faoliyatlari, kadrlarni tayyorlash va ishga joylashtirish maqsadli dasturlari ham kiradi. Ya'ni, ish bilan bandlik sohasi mehnat bozori tushunchasidan kengroqdir. Mehnat bozorini tartibga solish ish bilan bandlikning bir qismi hisoblanadi.

2. Ishsizlikning umumiy iqtisodiy xarakteri mehnat bozorining o'zi, mehnatga talab va uning taklifi o'rtasidagi mutanosiblik ishsizlikni emas, ish bilan bandlikni shakllantirishidan ham kelib chiqadi. Ishsizlik, bir tomondan, go'yo ish bilan bandlikning «teskarisi» hisoblanadi, ikkinchi tomondan, ish bilan bandlikni shakllantiruvchi omillardan farq qiluvchi omillar ta'sirini his qiladi. Shunday bo'lsada, ishsizlik doimo ish bilan bandlik bilan birgalikda ko'rib chiqiladi: ish bilan bandlikning ko'payishi, qoidaga ko'ra ishsizlikni kamaytiradi, bu esa ishsizlikni, o'z navbatida ish bilan bandlikni ko'paytiradi. Ta'rifga ko'ra ishsizlik – bu ishlashni istaydigan mehnatga layoqatli aholining ish bilan band bo'lmagan miqdoridir. Makroiqtisodiy jihatdan ishsizlik – bu doimo jamiyat mehnat salohiyatidan, ishchi kuchi majmuidan ishlab chiqarish omili sifatida to'la foydalanmaganlikdir.

3. Bandlik siyosatini olib borishning jahon tajribasi taraqqiy etgan mamlakatlarda bu siyosatining quyidagi uch modelini ajratish imkonini beradi: Shimoliy Amerika, Yevropa va Sharqiy Osiyo. Amerika modeli iqtisodiy faol aholining sezilarli qismi uchun yuqori mehnat unumdorligi talab qilinmaydigan ishchi o'rinlarini yaratishni nazarda tutsa, Yevropa modeli mehnat unumdorligini oshirish orqali bandlikni qisqartirish, natijada ishchilar daromadini oshirishni ko'zda tutadi. Yapon modelida esa davlat asosiy e'tiborni uzluksiz kasbiy tayyorgarlik orqali ishchi kuchining malakasini oshirishga qaratadi. Shuningdek, yapon modeliga mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ilg'or shakllarini milliy an'analar bilan uyg'unlashtirish xususiyati ham xos. Shuning uchun iqtisodiy

rivojlanishning yapon modelini iyerarxik korporativizm, deb ham atashadi.

4. Tahlillar, jahon mehnat bozorida ishsizlik darajasiga ta'sir etuvchi quyidagi omillarni ajratish imkonini beradi:

a) davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozning ishsizlik darajasiga salbiy ta'siri ko'rsatmoqda. Bu hol ushbu mamlakatlar iqtisodiyotiga, jumladan 2000 yillarning boshida iste'mol sektoridagi yuqori talab kredit ekspansiyasi natijasida rag'batlantirilgan AQSh iqtisodiyotida iqtisodiy faollikning pasayishiga olib keldi. Global bozor sharoitida nisbatan past raqobatbardoshli iqtisodiyotga ega G'arbiy Yevropa mamlakatlarida esa ishsizlik ommaviy tus ola boshladi. Masalan, Ispaniya va Gretsiyada ishsizlik darajasi 2012 yilda yigirma foizdan oshib (mos ravishda 25,0 va 24,2 %), ishsizlarning sezilarli qismini past malakali ishchilar tashkil etdi;

b) iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish zaruriyati. Inqiroz sharoitida jahon bozoridagi raqobatning kuchayishi ishlab chiqaruvchilarni tezkor sur'atlarda ishlab chiqarishni boshqarish va tashkil etishning usullari va yangi texnologiyalarini joriy etishga majbur etadi. Bu esa o'z navbatida ishlab chiqarishning umumiy rentabelligini oshiradi va shtatlarning qisqarishiga olib keladi;

v) ishlab chiqarishning ishchi kuchi arzon mamlakatlarga ko'chirilishi. Ushbu tajriba amaliyotda transmilliy korporatsiyalar tomonidan keng qo'llaniladi.

d) iqtisodiyotning tiklanish sur'atlarining pastligi sababli mehnat bozoriga kirib kelayotgan yoshlarning o'z ish o'rinlarini topa olmasliklari. Xalqaro mehnat tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra 2012 yilda ishsiz yoshlar soni 73,8 mln. kishi bo'lib, global iqtisodiy pasayish oqibatida 2014 yilga borib ularning safiga yana yarim million kishi qo'shilishi bashorat qilinmoqda. Yoshlar o'rtasida ishsizlik darajasi 2012 yilda 12,6 foizga qadar ortdi va bu ko'rsatkich 2017 yilga borib 12,9 foizga yetishi kutilmoqda.

5. Fikrimizcha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash bosqichida O'zbekistonda aktiv bandlik siyosatga o'tish hayotiy zaruriyatdir. Aktiv bandlik siyosati – bu davlat tomonidan ishsizlik darajasini pasaytirish maqsadida olib boriladigan

huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy chora-tadbirlar yig'indisidir. Bu siyosat ish o'rinlarini saqlab qolish maqsadida ishchilarni kutilayotgan bo'shatishlardan ogohlantirish; ish izlayotganlarni o'qitish, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; yangi ish o'rinlarini yaratishni moliyalashtirish; ish o'rinlarini izlash va tanlash; jamoat ishlarini tashkil etish tizimi orqali yangi ish o'rinlarini yaratish va boshqalarni qamrab oladi.

6. Tahlillar ko'rsatishicha, mehnat resurslari sonining o'sish sur'ati respublika hududlarida bir me'yorda kechmagan. Jumladan, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan, Samarqand, Surxondaryo va Farg'ona viloyatlarida respublika o'rtacha ko'rsatkichidan yuqori, qolgan barcha hududlarda (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari va Toshkent shahri) esa past bo'lgan. 2012 yilning 1 yanvar holatiga ko'ra, mehnat resurslari jami aholining 59 foizini tashkil qilib, uning asosiy qismi (qariyb 60 foizi) Samarqand, Farg'ona, Andijon, Qashqadaryo, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida to'plangan.

7. Shu bilan birga aholining ish bilan bandligini ta'minlashda qator muammolar va kamchiliklar mavjud:

- ish bilan ta'minlanishga muxtoj aholi sonining ko'pligi, ishsizlik darajasining yuqoriligi;
- dastur ijrosi nazoratining bo'sh tashkil etilganligi, tadbirkorlar muammolarining o'z vaqtida hal etilmasligi;
- xorijda ishlab qaytganlarni ish bilan ta'minlash borasidagi ishlarning samarasi past ekanligi, bu borada mavjud imkoniyatlarning ishga solinmaganligi;
- kasanachilik ish joylarini ko'paytirish imkoniyatlari ishga solinmayotganligi;
- yangi ob'ektlarni ishga tushirish, mavjud korxonalarni modernizatsiyalash ishlari (natijadorligining past ekanligi);
- tashkil etilgan ish joylarining salmoqli qismi qisqa muddatli va mavsumiy xarakterga egaligi;
- ish bilan band aholining salmoqli qismi ish haqi past bo'lgan sohalarda, norasmiy sektorda va barqaror bo'lmagan ish joylarida band etilganligi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

I. O'zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. –Toshkent: O'zbekiston, 2012,– 45 b.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksi. – T.: Adolat, 2011. – 276 b.
3. O'zbekiston Respublikasining “Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida»gi Qonuni. (yangi tahrir). -Toshkent: Adolat, 1998. –7 b.
4. «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. – 1997. - № 11-12.
5. «Ta'lim to'g'risida» O'zbekiston Respublikasining Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining axborotnomasi. -1997. - № 9.

II. O'zbekiston Respublikasi Prezident farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasi qarorlari

6. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Respublika jamg'armasini tashkil etish to'g'risida”gi Qarori. –Toshkent: 1992. 31 dekabr, 606-son.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yirik sanoat korxonalarini bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Farmoni. –Toshkent: 2006 yil 5 yanvar, PF-3706-son.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini ish bilan bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. –Toshkent: 2007. 6 aprel, PK-616- son.
9. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ishga joylashtirishga muhtoj mehnat bilan band bo'lmagan aholini hisobga olish

metodikasini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. –Toshkent: 2007. 24 may, 106- son.

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 6 apreldagi 616-sonli "Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. – Toshkent: 2007 yil 6 aprel.

11. O'zbekiston Respublikasi Mehnat vazirligi tomonidan 1999 yil 24 aprelda 2/6-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Ishsiz shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirishni tashkil etish to'g'risida"gi Nizom. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999 yil 2 iyulda 762-son bilan ro'yxatga olingan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-1717-sonli "Mustahkam oila yili" Davlat dasturi. 2012 yil 27 fevral'

III. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va nutqlari

12. I.A.Karimov. 2015 yilda iqtisodiyotimizda tub tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish hisobidan xususiy mulk va xususiy tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish – ustuvor vazifamizdir //“Xalq so'zi” gazetasi. 2015 yil 17 yanvar, № 14.

13. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o'sish sur'atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o'zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo'ladi. // “Xalq so'zi” gazetasi. 2014 yil 19 yanvar, № 13.

14. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. // “Xalq so'zi” gazetasi. 2013 yil 19 yanvar, № 13.

15. Karimov I.A. 2012-yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi.-T.:”O'zbekiston “, 2012. 36 b

16. Karimov I.A.«Yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash – mamlakatni barqaror taraqqiy ettirish va modernizatsiya qilishning eng muhim sharti» mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutq // Xalq so'zi, 2012 yil 18 fevral.

17. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. // Xalq so'zi, 22.01.2011 y. №16
18. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta'minlash- barcha islohot va o'zgarishlarimizning bosh maqsadidir. // –T.: Xalq so'zi, 2008. 9 fevral.-1-2 b.
19. Karimov I.A. Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo'lida yanada izchil harakat qilish, uchun farovon turmush sharoiti yaratish-asosiy vazifamizdir. –T.: “O'zbekiston”, 2007.
20. Karimov I.A. Yangicha hayotni eskicha qarash va yondashuvlar bilan qurib bo'lmaydi. –T.: “O'zbekiston”, 2005, 34 b.
21. Karimov I.A. Mavjud imkoniyat va resurslardan oqilona foydalanish-taraqqiyot omili. –T.: “O'zbekiston”, 2004, 27 b.

IV. Asosiy adabiyotlar

22. Abdurahmonov Q.X. “Mehnat iqtisodiyoti va sotsiologiyasi. Darslik.-T.: “Fan va texnologiya”, 2012. -389 b. Ijtimoiy soha iqtisodiyoti. Darslik.-T.:Iqtisodiyot, 2013.-418 b.
23. Mirzakarimova M.M. Bandlikda ijtimoiy sheriklik:Monografiya. “O'zbekiston milliy entseklpediyasi”, 2013 – 202 b.
24. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Mehnat iqtisodiyoti: ijtimoiy mehnat munosabatlari. Darslik. – T.: “TDIU” 2011, 420 b.
25. Abdurahmonov Q.X., Shoyusupova N,T. Aholini ish bilan bandligi.O'quv qo'llanma.-T.: “TDIU” 2011, 230 b.
26. Rasulova D.V. Ishchi kuchi migratsiyasi rivojlanishining nazariy asoslari. T.: “Moliya”, 2010, 276 bet.
27. Adamchuk V.V., Romashov O.V., Sorokin M.Ye. Ekonomika i sotsiologiya truda: Uchebnik dlya vuzov. – M.: YuNITI, 2009, - 407 –s.
28. Ata-Mirzayev O.B. Narodonaseleniye Uzbekistana: istoriya i sovremennost. – T.: Ijtimoiy fikr, 2009. –154-155.
29. Bulanov V. Рынок труда. Uchebnik. – M: Ekzamen, 2008

30. Veblen T. Teoriya prazdnogo klassa. – M.: Progress, 1984. –S.56.
31. Volgin N.A. Ekonomika truda: (sotsialno-trudovye otnosheniya) / Pod red. N.L. Volgina, Yu.D. Odegova. -M.: «EKZAMYeN», 2009, 736-s.
32. Genkin B.M. Ekonomika i sotsiologiya truda. Uchebnik dlya vuzov. —M.: Norma, 2007, 432-st.
33. Gelbrayt D.. Ekonomicheskaya teoriya i tseli obshchestva. -M.:Nauka. 1979. –406 s..
34. Jukov S., [Reznikova](#) O.V. Sentralnaya Aziya v sotsialno-ekonomicheskix strukturax sovremennogo mira. - Moskva: Moskovskiy obshchestvenniy nauchniy fond, 2001.
35. Juravlev P. Upravleniye chelovecheskimi resursami: opit industrialno razvitix stran. – M: EKZAMYeN, 2005.
36. Zokirova N., Abdurahmonov O. Inqiroz: oqibatlar, bartaraf etish, mehnat muammolari va yangi marralarga chiqish. – T.: Fan va texnologiya, 2009. –138-b.
37. Zyablikov D.V. Teoreticheskiye aspekti effektivnoy zanyatosti naseleniya. // Elektronnyy jurnal «ISSLYeDOVANO V ROSSII», 2004. <http://jurnal>.
38. ILO. Year Book of Labour Statistics.-Geneva, 2011.
39. Kuzmin S.A.. Zanyatost: strategiya Rossii. - M.: Editorial,URSS, 2001. 233-s.
40. Keyns Dj. Obshchaya teorii zanyatosti, protsenta i deneg. – M.: 1978.
41. Kokin A.Ya. Ekonomika truda. Uchebnik. - M.: Magistr, 2010. – 686 str.
42. Makkonell K.R., Bryu S.L. Ekonomiks:prinsipii, problemy i politika. (perevod s angl). -M.:Infra-M, 2002. -400 s.
43. Ryнок truda: Uchebnoye posobiye. Kollektiv avtorov pod ruk. akad. Abdurahmanova K.X.– T.: TFRYeA, 2009. 436 s..
44. Ryayeansev SV. Mirovoy ryнок truda i mejdunarodnaya migratsiya: Uchebnoye posobiye. — Moskva; ZAO «Izdatelstvo «Ekonomika», 2010. -303-s.
45. Sokolin B. Krizisnaya ekonomika Rossii: rubej tysyacheletiy - SPb.: «Liki Rossii», 1997. – 369-s.

46. Sbitova L.S. Struktura zanyatosti i effektivnost proizvodstva. - M.: Nauka, 2007
47. Smit A. Issledovaniye o prirode i prichinax bogatstva narodov. – M.: Nauka, 1993.
48. Fridman M. Money and Economic Development/ M.Friedman// 1973. №4. –S.70 .
49. Ubaydullaeva R., Ata-Mirzaev O., Umarova N. O'zbekiston demografik jarayonlari va aholi bandligi.– T.: Universitet, 2006;
50. Xasanov A. Ish bilan bandlik muammosi // J. Jamiyat va boshqaruv 2001. № 1, -B.27.
51. Shoyusupova N. Zamonaviy mehnat bozori faoliyati va tartibga solishning iqtisodiy mexanizmi // Jurnal. O'zbekiston iqtisodiy axborotnomasi 2007, № 10-11. b 44.

V. Qo'shimcha adabiyotlar

52. Abulqosimov X.P. Iqtisodiyotda inson omili: shakllanishi, amal qilishi va faollashuvi. Monografiya. – T.: Akademiya, 2006. – 346 b.
53. Artikova D.A. Formirovanie zanyatosti naseleniya v Respublike Uzbekistan. – T.: Fan, 2005;
54. Gonorskaya A.V. Obespechenie zanyatnosti trudovix resursov respubliki Uzbekistan s ispolzovaniem potentsiala negosudarstvennix nekommercheskix organizatsiy // Avtoref. diss. kand. ekon. nauk.–T.: 2002.–S.13.
55. Zokirova N.K. Sotsialno-trudovie otnosheniya: mejdunarodniy i natsionalnie aspekti. - T.: Fan, 2008. – S. 88.
56. Mirsaidov D. Mirlliy iqtisodiyotda oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish ish bilan bandlik tarkibining yangi yo'nalishi sifatida. // Respublika talabalar ilmiy amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. 2013 yil 6 aprel 2 qism.
57. Mirsaidov D. Iqtisodiyotda aholining ish bilan bandligik tarkibini yaxshilash yo'nalishlari// Respublika talabalar ilmiy amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. 2013 yil 6 aprel 2 qism.
58. Mirsaidov D. Aholini ish bandligini ta'minlashda tarkibiy o'zgarishlarni

amalga oshirish chora tadbirlari//Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash iqtisodiyot tarmoqlarini modernizatsiya qilish istiqbollari mavzusidagi magistratura talabalarining ilmiy amaliy anjumani ma'ruza tezislari to'plami. – T.: TDIU, 2013.

59. Tangriev L.X. Yoshlar siyosat sub'ekti: bandlik muammosi // Iqt. fan. nom. diss. avtoref. –T.: 2001, -B. 4.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar

60. Obrazovaniye v Respublike Uzbekistan. 2011. Statisticheskiy sbornik. T. – 2012. – 281-s.

61. Doklad o chelovecheskom razvitii Uzbekistan – 2006. – S. 75.

62. O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi ma'lumotlari. Toshkent: 2008-2012.

63. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari. Toshkent: 2008-2012.

64. O'zbekiston Respublikasi savdo sanoat palatasi ma'lumotlari.

65. O'zbekiston raqamlarda 2014. Uzbekistan v tsifrax. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika ma'lumotlari.

VII. Internet saytlari

- [http:// www.gov.uz](http://www.gov.uz)
- [http:// www.wto.org](http://www.wto.org)
- [http:// www.goldenpages.uz](http://www.goldenpages.uz)
- [http:// www.stat.uz](http://www.stat.uz)
- [http:// www.uza.uz.](http://www.uza.uz)
- [http:// www.ilo.ru](http://www.ilo.ru)
- [http:// www.imce.ru](http://www.imce.ru)
- [http:// www.lex.uz.](http://www.lex.uz)
- [http:// www.mehnat.uz.](http://www.mehnat.uz)